

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

MAGISTRATURA BO'LIMI

Qo'lyozma huquqida

UDK: 336.1

MURADOVA MUYASSARXON KARIMJON QIZI

**XALQ TA'LIMINI SAMARALI MOLIYALASHTIRISHNI
TASHKIL ETISH YO'LLARI**

Mutaxassislik: 5A230601 - "Davlat moliyasini boshqarish"

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar

i.f.n., dots. T. Baymuratov

TOSHKENT - 2015

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI TIZIMINI MOLIYALASHTIRISHNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY- USLUBIY ASOSLARI.....	
1.1 O‘zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini moliyalashtirishning nazariy-uslubiy asoslari.....	
1.2 Xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimini moliyalashtirishning nazariy- uslubiy asoslari.....	
II BOB. MAMLAKATIMIZDA XALQ TA'LIMI TIZIMINI MOLIYALASHTIRISH AMALIYOTINING TAHLILI	
2.1 Xalq ta'limi tizimini moliyalashtirish manbalari va ularning dinamik tahlili.....	
2.2 Maktabgacha tarbiya muassasalari xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish.....	
2.3 Umumta'lim muassasalari xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish.....	
III BOB. XALQ TA'LIMINI SAMARALI MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI.....	
3.1 Xalq ta'limi muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish yo‘nalishlari.....	
3.2 Xalq ta'limini moliyalashtirish samaradorligini oshirishdagi tamoyillar.....	
XULOSA.....	
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. Ma'lumki, ta'lim har bir jamiyatning ajralmas tarkibiy qismi, madaniyatni rivojlantirishning yuksak ko'rsatkichi hisoblanadi.

Ijtimoiy tajribaning bog'lovchi bo'g'ini sifatida u madaniy an'analar butunligi va vorisiyligini hamda jamiyat taraqqiyotini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi o'z rivojlanishida tub burilish davrini boshidan kechirmoqda. Bu o'zgarishlarning asosini mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan ishlab chiqilgan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar Tayyorlash Milliy Dasturi" va 2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy Dasturi tashkil etadi.

Bu hujjatlar Respublikada barcha darajalarda: vazirlikdan to o'quv muassasalarigacha bo'lgan darajalarda ta'limni rivojlantirishning shakl va mazmunini takomillashtirish zaruriyatini taqazo etadi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasida barcha fuqarolar jinsi, irqi, millati, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar ta'lim olishda bir xil huquqlarga ega ekanligi belgilab qo'yilgan. Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim tizimiga alohida hukumat darajasida e'tibor qaratilib, uning rivoji yo'lida davlat Budjeti va Budjetdan tashqari jamg'armalar hisobidan katta mablag' ajratilib, keng miqyosli chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "2014-yilda ta'lim-tarbiya sohasida islohotlarni yanada chuqurlashtirish, ta'lim standartlari va dasturlarini takomillashtirish, maktablar, litsey va kollejlar, oliy o'quv yurtlarining moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash masalalariga katta e'tibor berildi.

2014-yilda ta'lim-tarbiya sohasida 380 ta umumta'lim maktabi hamda 161 ta kasb-hunar kolleji va akademik litseyni rekonstruksiya qilish va kapital

ta'mirlash uchun 410 milliard so'mdan ziyod mablag' yo'naltirildi"¹.

Bugungi kunda davlat Budjeti xarajatlari tarkibida ta'lim xarajatlari salmog'i jihatdan birinchi o'rinda turishi, bozor iqtisodiyoti sharoitida ta'lim muassasalari xarajatlarini rejalashtirish hamda moliyalashtirish tartibini takomillashtirish zaruriyati, qolaversa mazkur sohani moliyalashtirish manbalarini qayta ko'rib chiqishning dolzarbligi, shuningdek 2007 yil 25 fevraldan «Xalq ta'limi tizimi muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish to'g'risida»gi Prezident farmoniga muvofiq xalq ta'limi muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini yanada takomillashtirish zarurligi tanlangan ilmiy tadqiqot mavzusining dolzarbligidan dalolat beradi.

Tadqiqotning predmeti va obyekti. Ilmiy tadqiqot ishini yozishda o'rganish ob'yekti qilib Xalq ta'limi vazirligi va O'zbekiston xalq ta'limi tizimida faoliyat ko'rsatayotgan muassasalar xisobot ma'lumotlari tanlandi. Bunda ta'lim tizimini mablag' bilan ta'minlash jarayonlari bilan batafsil tanishib chiqildi, bundan tashqari oxirgi yillar davomida ta'lim tizimiga davlat Budjetidan ajratilgan mablag'lar, ularni Budjetdan tashqari topgan daromadlari bo'yicha taxlil amalga oshirildi hamda ularni ko'paytirish yo'llari o'rganib chiqildi.

Ilmiy tadqiqot ishining maqsad va vazifalari. Respublikamizda mustaqilikka erishilgandan keyin ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, ularning natijalari va ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan muassasalar moliyaviy ta'minlash tartibini o'rganish, ta'lim muassasalarini mablag' bilan ta'minlash mexanizmini chuqur tahlil qilish asosida uning mohiyatini ochish, bu sohadagi mavjud muammolarni bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish to'g'risida fikrlar bildirishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi asosiy vazifalar belgilab olindi:

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi 2015 yil 17 yanvar.

- ijtimoiy sohalar tizimida xalq ta'limining tutgan o'rni va rivojlanish xususiyatlarini ochib berish;

- xalq ta'limi moliyaviy ta'minotining zarurligi, vazifalari va manbalarini o'rganish;

- xalq ta'limi tizimini budjetdan moliyalashtirish amaliyotini yoritish;

- xalq ta'limi muassasalari moliyaviy ta'minotida budjetdan tashqari jamg'armalardan foydalanish holatining tahlilini keltirish ;

- xalq ta'limi xarajatlarini moliyalashtirishda xorijiy mamlakatlar tajribalari va ulardan foydalanish imkoniyatlarini o'rganish;

- iqtisodiyotni modernizasiyalash sharoitida xalq ta'lim muassasalari faoliyatini samarali moliyalashtirishni takomillashtirish yo'nalishlarini o'rganish bo'yicha ilmiy xulosa va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Magistrlik dissertatsiyasi yuzasidan olib borilgan tadqiqot ishida ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarning amaliyotda qo'llanilishi xalq ta'limi tizimini samarali moliyalashtirishni takomillashtirilishiga olib kelishi mumkin.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi (tahlili). Davlat budjeti va uning tarkibiy qismi bo'lgan mahalliy budjetlar, ular daromadlarining tarkibi va tuzilmasi, mahalliy budjetlar daromad bazalari shakllanishiga doir masalalar xorijlik iqtisodchi-olimlar, jumladan, P.P.Anisimov, Ye.F.Borisov, V.M.Gaskov, T.O.Georgiyeva, R.Djonson, I.V.Yeliseyeva, Ye.N. Jiltsov, V.M.Zuyevlarni ilmiy tadqiqot ishlari olib borganlar. Mamlakatimizning yetakchi iqtisodchilar olimlardan Q.X. Abduraxmonov, Yu.V.Voronovskiy, M.X.Saidov, S.S.G'ulomov, M.Sh.Sharifxo'jayev, M.A.Murtazina, Z.Ya.Xudoyberdiyevlar va boshqalar ilmiy ishlarida mazkur masalaning alohida jihatlarini o'z aksini topgan.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi. Ilmiy tadqiqotning nazariy va uslubiy asosi bo'lib dialektik uslub, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov asarlari va mazkur muammoni hal qilish bo'yicha xorijiy mamlakatlar

hamda O'zbekiston iqtisodchi olimlarining ilmiy g'oyalar va yo'nalishlari asos qilib olingan.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida nazariy yondashuv, iqtisodiy statistik va tarkibiy-funksional tahlil, qiyosiy tahlil, guruhlashtirish, grafik jadval va boshqa usullardan foydalanildi. Shuningdek, tadqiqot ishiga qo'yilgan maqsadga erishishda O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan Qonunlar, hukumat qarorlari, farmonlariga asoslandi hamda xorij, MDH iqtisodchi olimlarining iqtisodiy fan tarixida va uning iqtisodiyotdagi asosiy vazifalari xususidagi fikr mulohazalari bayon qilingan ilmiy-amaliy anjumanlar materiallaridan unumli foydalanildi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi muassasalari faoliyatini tartibga soluvchi hamda ularni moliyaviy ta'minlashga doir qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari, Oliy Majlis Senati va Qonunchilik Palatasining qo'shma majlisida, Vazirlar Mahkamasining yil yakunlariga bag'ishlangan yig'ilishdagi nutqlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunlari, Vazirlar Mahkamasining ta'lim tizimidagi islohotlar va ularni moliyalashtirishga bag'ishlangan qaror va farmoyishlari, yo'riqnomalari, Moliya vazirligining me'yoriy xujjatlari hamda xorij va mamlakatimiz iqtisodchi olimlarining ushbu sohaga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlari tashkil etadi.

Tadqiqot ishida ta'lim tizimi muassasalarni moliyalashtirish, budjet va budjetdan tashqari mablag'lari manbalarini oshirish borasida berilgan ilmiy xulosa va takliflar moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishda alohida ahamiyatga ega.

Ish tuzilmasining tavsifi. Dissertatsiya ishi tarkibiy jihatdan kirish, uch bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Tadqiqot matni 85 betdan iborat bo'lib, 10 ta jadval va 6 ta rasmni o'z ichiga oladi.

I BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI TIZIMINI MOLIYALASHTIRISHNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY- USLUBIY ASOSLARI

1.1 O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini moliyalashtirishning nazariy- uslubiy asoslari

O'zbekiston o'z mustaqilligining dastlabki yillaridanoq ta'lim-tarbiya sohasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratib kelmoqda. Negaki, Davlat siyosatining ustivor sohasi zahirida komil inson tarbiyasi yotadi. "Komil inson deganda biz, avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz"-deb ta'kidlaydi davlatimiz rahbari I.A Karimov².

Azaldan ma'lumki, xalqimiz orasida dono, o'z aqli va zakovati bilan dunyoni lol qoldirib kelgan bobokalonlarimiz Amir Temur, Imom Buxoriy, Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy kabi bobolarimiz insoniyatning ma'naviy dunyosiga ulkan hissa qo'shganlar. Al-Farobiyning "Fozil odamlar shahri" asarida Ideal shahar davlati obrazini yaratib, jamiyatning har bir fuqarosi fozil kishi bo'lishi lozimligi, ya'ni sog'lom bo'lishi, yuksak darajada iqtidorli, xotirasi kuchli, aqli ziyrak, ilmparvar bo'lishi ko'rsatib o'tilgan. Fozil inson o'z davlatining barcha qonun-qoidalarini yaxshi biladi, unga amal qiladi, lozim bo'lganda Vatani uchun jon fido qiladi. Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir" degan serma'no fikrlari ham ta'lim-tarbiya masalasiga qanchalik jiddiy yondoshishni talab qiladi. Dunyoning bugungi rivoji shunday bir mavqedaki, unda hal qiluvchi omil harbiy qudratda emas, balki intellektual salohiyatda, fikrda, aqlida, ilg'or texnologiyalardadir. Prezident Islom

² Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz-jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir, Xalq so'zi gazetasi, 2005 yil 26 yanvar, 1-5 b.

Karimov tomonidan lutf etilgan: "Kuch bilim va tafakkurda" degan hikmat bugun va ertangi kun uchun aytilgandir.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishda mamlakatning ijtimoiy soha, xususan, maorif sohasida mavjud muammolarni bartaraf etishda xukumat tomonidan qator islohotlar o'tkaziladi. Vatanimiz iqtisodchi olimlari A. O'lmasov, M. Sharifxo'jaev iqtisodiyot nazariyasiga oid asarlarida davlatning iqtisodiyotga sotsial siyosati orqali ta'siri to'g'risida ta'kidlab o'tganlar.


O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning eng asosiysi bu, shaxs salohiyatini ko'tarish hisoblanadi. Mamlakatimizda ta'lim-tarbiyani isloh qilishning, takomillashtirishning, eng avvalo huquqiy asoslari yaratildi. 1992 yil 8 dekabrda o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Oliy Kengashining o'n birinchi sessiyasida O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi qabul qilinib, har bir fuqoroning bepul umumiy ta'lim olish huquqi, ta'limning davlat nazoratida ekanligi qonuniy kafolatlandi.

Ta'lim tizimi holatiga nazar tashlasak, O'zbekistonda ta'lim saviyasi yetarlicha yuqori. Har ming ishlovchining 948 tasi ma'lumotga ega, jumladan, to'liqsiz o'rta-127, o'rta-480, o'rta maxsus-199, oliy va tugallanmagan oliy-142 nafarni tashkil etadi. Aholining 99% dan kupi savodli hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida davlatimizda ta'limning ushbu shakllari belgilangan (1-rasmga qarang):

- maktabgacha ta'lim;
- umumiy o'rta ta'lim;
- o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi;
- oliy ta'lim;
- oliy ta'limdan keyingi ta'lim;
- malaka oshirish va kadrlarni qayta tayyorlash;
- maktabdan tashqari ta'lim
- oiladagi ta'lim va mustaqil ravishda ta'lim olish

Bizning tadqiqot ob'ektimiz bo'lgan maktab ta'limi muassasalari davlat xalq ta'limining asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Ushbu bo'gin boshlang'ich ta'lim (1-4 sinflar), umumiy o'rta ta'lim (1-9 sinflar)ni o'z ichiga olib, asosan davlatga qarashli bo'lgan maktablarda (boshlang'ich, umumiy o'rta, ixtisoslashtirilgan va boshq.) amalga oshiriladi. Boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'lim olish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim va ko'nikma asoslarini shakllantirishga qaratilgandir. Umumiy o'rta ta'lim bilimlarning zarur hajmini beradi, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantiradi, dastlabki tarzda kasbga yo'naltirishga va ta'limning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam beradi.



1.1.1-rasm.O'zbekiston Respublikasining ta'lim shakllari³

³ O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni asosida dissertant tomonidan tayyorlandi.

Shu joyda ta'kidlash lozimki, umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'qitish samarasi nafaqat ta'limning sifatiga, balki xalq ta'limiga ajratiladigan mablag'larning miqdori va ulardan foydalanishining samaradorligiga ham bog'liq. Shuning uchun umumiy o'rta ta'lim muassasalarining faoliyati, ularning kerakli resurslar bilan ta'minlanishiga katta e'tibor berish zarur hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Vazirlar Mahkamasining 2012 yilda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2013 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan yig'ilishidagi ma'ruzasida ta'kidlagan eng muhim jihatlardan biri – yosh mutaxassis va kadrlarni tayyorlash, ularga zamonaviy bilimlar berish, ularning o'z qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishlari uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berishga jiddiy e'tibor qaratilishidir.

O'zbekiston aholisining 60 foizdan ko'prog'ini bolalar va o'smirlar tashkil qiladi. Tabiiyki, ularni o'qitish, tarbiyalash, kasbga yo'naltirish va mutaxassis kadr qilib tayyorlash masalalari zamonning dolzarb masalasi bo'lmog'i zarur.

O'tgan yillar davomida mamlakat ta'lim tizimida hamdo'stlik davlatlari orasida birinchilardan bo'lib, quyidagi me'yoriy-xuquqiy asoslar yaratildi. Jumladan:

“Ta'lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish, barkamol avlodning voyaga yetkazish” O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 6 oktyabrdagi PF-1869-son farmonini birinchi bandi bilan “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ni xayotga tadbiq etish ishlari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi deb belgilangan.

Respublikada ta'lim-tarbiya tizimini tubdan o'zgartirish yo'lida olib borilayotgan islohotlarni amalga oshirish va bu borada qabul qilingan hujjatlar mohiyatini keng jamiyatchilik tomonidan chuqur anglab olinishiga har tomonlama sharoit yaratish-davlat boshqaruvi, huquqni muhofaza qilish

idoralari, ta'lim-tarbiya muassasalari xodimlarining eng dolzarb vazifalari etib belgilansin deb ko'rsatilgan.

Farmonning 2-bandida: Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dasturni amalga oshirish Respublika komissiyasi tuzilgan.

Respublika komissiyasiga juda ma'suliyatli vazifalar yuklangan.

-“Ta'lim to'g'risida”gi Qonunni amalga oshirish ishlarini muvofiqlashtirish, ta'lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash sohasida davlat siyosati tamoyillarini xayotga tadbiq etish;

- Respublika vazirliklari, idoralari va muassasalari hamda mulkchilik shaklidan qat'iy nazar barcha tashkilotlarining ta'lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini isloh etish bilan bog'liq faoliyatini muvofiqlashtirish;

- kadrlar tayyorlash tizimi xuquqiy-me'yoriy asosini Milliy dastur talablariga mos ravishda qayta ko'rib chiqishni tashkil qilish;

- uzluksiz ta'limning barcha bosqichlari uchun Davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish, tasdiqlash va amaliyotga tadbiq etishni ta'minlash;

- o'quvchi va talabalarni bilimi va ko'nikmalarini baholash me'yorlarini ko'rib chiqish: Boshlang'ich sinf o'qituvchilari, kadrlar muammosi.

- Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining bajarilishi monitoringini olib borish.

Shuningdek “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”, “Ta'lim to'g'risida”gi Qonunning tarkibiy qismi bo'lgan “2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umumilliy dasturi”ni amalga oshirish mamlakatda ta'lim tizimini isloh qilishning hozirgi bosqichidagi eng muhim vazifa deya e'tirof etiladi hamda 5ta yo'nalishda islohotlarni amalga oshirish belgilanadi.

Ko'pgina boshqa davlatlardan farqli o'laroq, mamlakatimizda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da qo'yilgan vazifalarni amalga oshirishning barcha yuki davlat zimmasidadir. Dasturni amalga oshirishda bosh islohotchi sifatida davlatimizning o'zi katta mas'uliyatni o'z zimmasiga olyapti. “Farzandlari kelajagini o'ylab yashash – o'zbek millatiga xos fazilat”,-deb ta'kidlaydi Prezidentimiz I.Karimov o'z nutqlarining birida.

Ma'lumki, ta'lim tizimini isloh qilish ishlari 1997 yilda boshlangan edi. O'tish davrdagi yangi sharoitlarni hisobga olgan holda ta'lim sohasida tub islohotlarni amalga oshirish maqsadida "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun hamda "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" qabul qilindi. Bu davrga kelib O'zbekiston milliy ta'lim tizimida erishilgan yutuqlar bilan birgalikda, bir qator muammolar ham mavjud edi. Dasturning asosiy maqsad va vazifalari ana shu muammolarni hal qilishga qaratildi.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida belgilangan islohotlarning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat bo'ldi:

- maktabgacha va umumiy ta'limni takomillashtirish;
- o'rta maxsus kasbiy ta'limni oqilona tashkil etish;
- ta'limni boshqarish va moliyalashtirishni yaxshilash;
- kadrlar tayyorlashning samarali tizimini yaratish.

Dasturni amalga oshirishning birinchi bosqichi – 1997-2001 yillar, ikkinchi bosqich – 2002-2005 yillar, uchinchi bosqich – 2006 va undan keyingi yillarni o'z ichiga oladi. Bu hujjatlarga muvofiq, mamlakatda 12 yillik bepul majburiy ta'limga o'tish amalga oshirilmoqda, o'rta maxsus kasbiy ta'limning yangi turi shakllanmoqda, o'quv dasturlarining xilma-xilligi va ta'lim tizimini ko'ptarmoqli moliyalashtirish ta'minlanmoqda. 2004 yilda umumiy ta'limga berilgan ustivor maqomni tasdiqlovchi va maktab ta'limi rivojlanishining Davlat umummilliy Dasturini amalga oshirishning asosiy yo'nalishlarini aniqlab bergan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirishning Davlat umummilliy Dasturi to'g'risida"gi Farmoni (2004 yil 21 may PF-3431-son) qabul qilingan. 2011 yilda "Ta'lim muassasalarini kapital ta'mirlash va rekonstruktsiya qilish" jamg'armasi, 2012 yilda "Ta'lim va sog'liqni saqlash muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash" jamg'armasi xalq ta'limini moliyaviy ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunga muvofiq, mamlakatda maktab yoshiga yetgan barcha bolalar

(nogironlar, rivojlanishi sust bo'lgan bolalar) turli xil ta'lim muassasalarida (nogironlar, rivojlanishi sust bo'lgan bolalar va shu kabilar uchun maxsus maktablarni ham kiritgan holda) ta'lim olishga majburlar.

Ta'lim – bu jamiyatning strategik resursi va davlat hamda jamiyat qurilishida muhim ustuvorlik ekanligini hisobga olib, butun ta'lim tizimining har bir bosqichini boshqarishda davlat yetakchi rol o'ynaydi.

Ta'lim tizimi ustidan davlat rahbarligi, avvalo, quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'lim tizimi maqsadlarini aniqlashda;
- uning rivojlanishini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy asoslarni ishlab chiqishda;
- resurslar bilan ta'minlash va moliyalashtirishning boshqa manbalarini aniqlashda;
- qo'yilgan maqsadlarga erishish jarayoni ustidan monitoringni amalga oshirishda.

Davlat ta'lim xizmatlarini taqdim etadi, ularni moliyalashtiradi va tartibga soladi, bu xizmatlar to'g'risida ma'lumotlar to'playdi va chop etadi. Ta'lim sohasini davlat tomonidan tartibga solishning umumiy maqsadi uni bozor iqtisodiyoti va XXI asrning demokratik jamiyat qurish talablariga ko'proq javob beruvchi tizimga aylantirishdan iborat. Tor ma'noda bu maqsad – yoshlarning barcha toifalariga maktab ta'limi xizmatlaridan foydalanishdagi teng qulaylikni, o'qituvchilar malakasining yuqori darajasini va ta'limning yuqori sifatini ta'minlashdir.

“Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”da nafaqat o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi, balki bazaviy hisoblanmish xalq ta'limi, ya'ni boshlang'ich ta'limni rivojlantirish va uni jahon standartlari talablariga javob beradigan darajaga etkazish, boshlang'ich ta'limda ilg'or chet el texnologiyalarini qo'llash, uning moddiy-texnik bazasini yaxshilash hamda o'qituvchi xodimlarning moddiy rag'batlantirishni kuchaytirish kabi vazifalar ham belgilangan.

Bugungi kunda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi yosh avlodga uzluksiz ta'lim berish va uni tarbiyalash jarayonini yaxlit qamrab oladigan yagona ta'lim majmui hisoblanadi. Bunda ta'lim tizimining har bir bo'g'ini alohida o'rin va mas'uliyatga egadir. Dasturni to'liq amalga oshirish, qo'yilgan vazifalarga erishish ana shu bo'g'inlarning holati va rivojlanish darajasiga, ularning o'zaro uyg'unligiga bog'liqdir.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga asosan O'zbekistonda xalq ta'limining milliy tizimini keltiriladigan jadvalda ko'rishimiz mumkin.

1.1.1-jadval

O'zbekistonda xalq ta'limining milliy tizimi⁴

Yosh	O'quv yurtining turi		Ma'lumot darajasi
25 va undan yuqori	Doktorantura (PHD) (o'qish muddati 3 yildan kam bo'lmagan)		Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim
19-24	Oliy ta'limning kasbiy dasturlari (tibbiyot, o'qish muddati 12 yilgacha)	Magistratura (2 yildan kam bo'lmagan)	Oliy ta'lim
		Umumiy oliy ta'lim dasturlari (4 yildan kam bo'lmagan)	
16-18	Akademik lisey (o'qish muddati 3 yil)	Kasb-hunar kolleji (o'qish muddati 3 yil)	O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi
11-15	Umumiy o'rta maktab (o'qish muddati 5 yil)		Umumiy o'rta ta'lim
7-10	Boshlang'ich maktab (o'qish muddati 4 yil)		
4-6	II bosqich		Maktabgacha ta'lim
2-3	I bosqich		

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturiga muvofiq, ta'lim bir necha bosqichlarni qamrab oluvchi uzluksiz jarayon sifatida qaraladi:

⁴ Доклад «Система образования Узбекистана (реформа в цифрах и фактах) проекта АБР/ЮНЕСКО ТА № 2947-УЗБ «Мониторинг реализации образовательных реформ»

- maktabgacha ta'lim - 6-7 yoshgacha davlat va nodavlat maktabgacha bolalar muassasalarida amalga oshiriladi;

- umumiy o'rta (maktab) ta'lim - 9 yillik muddatdagi majburiy ta'lim hisoblanadi;

- uch yillik o'rta maxsus, kasbiy ta'lim ham majburiy hisoblanadi va akademik lisey yoki kasb-hunar kollejlariida amalga oshiriladi;

- oliy ta'lim ikki bosqichni qamrab oladi: bakalavriat va magistratura;

- oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim;

- malaka oshirish va kadrlarni qayta tayyorlash;

- maktabdan tashqari ta'lim.

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 9-moddasiga muvofiq⁵, O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- davlat standartlariga muvofiq ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim muassasalari;

- ta'lim tizimining faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalar;

- ta'lim sohasidagi davlat boshqaruv organlari, shuningdek, ularga qarashli korxonalar, muassasalar va tashkilotlar.

Qonunning 31-moddasida davlat ta'lim muassasalarini moliyalash respublika va mahalliy budjetlar mablag'lari, shuningdek budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi.

Ta'lim muassasalari ta'lim muammolari yuzasidan xalqaro hamkorlikda ishtirok etadilar, chet davlatlarning tegishli o'quv yurtlari bilan bevosita aloqalar o'rnatish, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ular bilan qo'shma o'quv yurtlari tashkil etish huquqiga ega.

Iqtisodiyotning barqaror o'sishi bilan bir qatorda Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi, Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy Dasturi, boshqa ijtimoiy dasturlar, hukumatning boshqa qarorlariga muvofiq amalga

⁵ O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi 464-son Qonuni 29.08.1997 y.

oshirilgan maqsadli chora-tadbirlar majmui ijtimoiy sohadagi ijobiy tendensiyalar uchun asos bo'lib xizmat qildi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishning ikkinchi bosqichi vazifalariga muvofiq oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi o'quv muassasalari tuzilmasini, ularning moddiy-texnika bazasini zamonaviylashtirish, o'qitish jarayonini takomillashtirish va resurs ta'minoti bo'yicha ishlar davom ettirildi. Shunisi ayonki, mamlakatimiz iqtisodiyotining taraqqiyoti nafaqat tayyorlanayotgan yuqori malakali kadrlar soniga, balki ularning iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarida faoliyat ko'rsatishi uchun mutaxassislik hamda yo'nalish jihatidan tarkibining muvofiqligiga ham bog'liqdir. Zero, bugungi kunda mamlakatimizda qurilish, engil sanoat, xizmat ko'rsatish va servis, axborot va aloqa, neft-gaz va kimyo, go'sht-sut, yog'-moy va oziq-ovqat sanoati tarmoqlarining ustuvor ravishda rivojlanishi uchun eng avvalo mazkur sohalar bo'yicha zamonaviy bilimlarga, ilg'or texnika va texnologiyalar bilan «tillasha» oladigan mutaxassis kadrlarni etkazib berish zarur⁶.

“Ta'lim to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining Qonunini bajarish yuzasidan hamda xalq ta'limi muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini yanada takomillashtirish, moliyaviy-iqtisodiy masalalarni hal etishda maktabgacha ta'lim muassasalarining mustaqilligini kengaytirish va mas'uliyatini oshirish maqsadida Vazirlar Maxkamasi tomonidan 2009 yil 18-mayda “Xalq ta'limi muassasalari xarajatlarini moliyalashtirish mexanizmini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” 139-son qarori qabul qilindi. Ushbu qarorni qabul qilinishi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Moliya vazirligi, mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan birgalikda mahalliy Budjetlardan moliyalashtiriladigan maktabgacha ta'lim muassasalariga, ularda buxgalter lavozimini kiritgan xolda qonunga muvofiq bosqichma-bosqich yuridik shaxs maqomi berilishiga zamin yaratdi.

⁶ Bekmurodov A.Sh., G'afurov U.V. O'zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizatsiyalash: natijalar va ustuvor yo'nalishlar. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2007, 36-bet

Bunday islohotlar yurtimizda ta'lim tizimini moliyaviy ta'minlash sohasini takomillashtirish hamda moliyalashning sodda mexanizmini ishlab chiqish yo'lida amaliyotga tadbiq etilgan asosiy chora-tadbirlardan hisoblanadi. Amalga oshirilgan islohotlar bir qatorda davlat Budjetidan ta'lim uchun ajratilgan xarajatlar yil sayin ortib bormoqda.

Ta'limni moliyalashtirish tizimi mustaqillik yillarida ma'lum o'zgarishlarni boshidan kechirdi, lekin davlat resurslaridan foydalanishdagi o'ziga xos xususiyatlarni saqlab qoldi, unda asosiy moliyalashtirish manbai – davlat budjeti bo'lib, davlat budjetidan ta'lim muassasalarini saqlashga ajratmalar esa smeta asosida ajratiladi.

Davlat budjetidan ta'lim muassasalarini moliyalashtirish islohotlargacha bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy modelga to'g'ri keladi – davlat o'z budjetida mamlakat milliy daromadining sezilarli qismini to'plagan holda, keng rivojlangan ta'lim muassasalari tarmog'ini ularning asosiy ehtiyojlarini qondiradigan darajada saqlash imkoniyatiga ega bo'ldi.

Biroq, 90-yillardan keyin bo'lgan iqtisodiy pasayish va mamlakat milliy daromadini taqsimlashdagi davlat ulushining pasayishi, hatto budjetning ta'limga ajratilgan xarajatlarning ulushi nisbatan yuqori bo'lsa-da, davlat tomonidan moliyalashtirish hajmlari ushbu sohadagi barcha zarur xarajatlarni to'liq qoplamaydigan darajaga olib keldi. Bu sohaga ajratmalarni oshirib borishni davom ettirishga davlat resurslarining cheklanganligi imkon bermay qo'ydi. Yuzaga kelgan holatdan haqiqatda chiqish uchun ta'limni moliyalashtirish manbalarini kengaytirish va ta'limga davlat xarajatlarini maqbullashtirish, ularni samarali qo'llash yo'llarini izlab topish zarurati ta'lim tizimidagi islohotlarning iqtisodiy muammolaridan biridir.

1999 yil sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Budjet tashkilotlarini moliyalashtirish tartibini takomillashtirish to'g'risida»gi 414-sonli Qarori chiqdi, bu Qaror ularga o'z ihtiyorlaridagi budjet mablag'larini ishlatishda ko'proq huquqlar berdi va qo'shimcha moliyaviy resurslarni jalb etish imkoniyatlarini kengaytirdi. Xalq ta'limi muassasalari asosan,

tushumlarining asosiy manbasi soliq tushumlari va yuqori budjetdan ajratiladigan turli dotasiyalar, subsidiyalar va subvensiyalar bo'lgan mahalliy budjetlardan moliyalashtiriladi. Bundan tashqari ular maktabning budjetdan tashqari mablag'larini shakllantiruvchi qo'shimcha daromadlarga ega bo'lishi ham mumkin.

2004 yilning iyunida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Maktab ta'limining budjetdan tashqari Jamg'armasini tashkil etish bo'yicha tadbirlar to'g'risida»gi 263-sonli Qarori chiqdi. Uning maqsadi – maktab ta'limini rivojlantirishning Davlat umummilliy Dasturini amalga oshirishni ta'minlash. Mazkur Qarorga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligida maxsus budjetdan tashqari Jamg'arma⁷ yaratildi, bu hujjat Jamg'arma mablag'larini shakllantirishning asosiy manbalarini va ularni sarflash yo'nalishlarini belgilab berdi. Jamg'arma mablag'lari Moliya vazirligi va mahalliy moliya organlari tomonidan ochiladigan «Maktab ta'limi Jamg'armasi mablag'lari» maxsus hisobraqamida jamlanadi.

Maktab ta'limi Jamg'armasining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- Maktab ta'limini rivojlantirish Dasturini amalga oshirish yo'lida maqsadli foydalanish uchun budjet mablag'larini hamda yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik mablag'larini, horijiy kreditlar va grantlarni to'plash;
- Dasturda ko'zda tutilgan buziladigan maktablar o'rniga yangilarini qurish, kapital tiklash, joriy va kapital ta'mirlash, maktablarni o'quv-laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi, maktab partalari va jihozlari, sport buyumlari bilan jihozlash hajmlarini moliyalashtirish;
- Dasturni amalga oshirish bo'yicha Jamg'arma mablag'laridan qat'iy maqsadli foydalanish ustidan monitoringni ta'minlash.

Maktab ta'limi Jamg'armasi mablag'larini shakllantirish manbalari va sarflash yo'nalishlari sifatida quyidagilar belgilandi:

⁷ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 7 iyun «Byudjetdan tashqari Maktab ta'limi jamg'armasini tashkil qilish tadbirlari to'g'risida» gi 263-sonli Qarori

Manbalari:

- davlat budjetida alohida satr bilan ko'zda tutilgan budjet ajratmalari;
- mahalliy budjetlarning soliqlar va yig'imlar bo'yicha prognoz qilingan tushumlaridan ortiq qismini jalb qilishdan mablag'lar;
- xalqaro moliya tashkilotlari va institutlarining grantlari va kreditlari;
- O'zbekiston Respublikasi rezidentlari va norezidentlari bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik yordamlari;
- Jamg'armaning vaqtincha bo'sh mablag'larini joylashtirishdan olingan daromadlar;
- qonun bilan ta'qiqlanmagan boshqa tushumlar.

Sarflash yo'nalishlari:

- tasdiqlangan manzilli ro'yxatlarga muvofiq buzilayotgan maktablar o'rniga yangilarini qurish, mukammal rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash; maktablarni zamonaviy o'quv-laboratoriya uskunolari va kompyuter texnikasi bilan jihozlashni moliyalashtirish;
- partalar va maktab jihozlarini sotib olish;
- maktablarni sport buyumlari bilan jihozlash.

Homiylar va grant beruvchilar tomonidan Jamg'armaga mablag'lar Jamg'armaning maqsad va vazifalariga zid bo'lmagan foydalanish maqsad va shartlari ko'rsatib taqdim etilgan hollarda, bu mablag'lar faqat homiylar va grant beruvchilarning ko'rsatmalariga muvofiq ishlatiladi.

Shunday qilib, maxsus davlat nobudjet maktab ta'limi Jamg'armasini yaratish maktablarning moddiy-texnik asosini mustahkamlash va kengaytirish masalalarini markazlashtirilgan tartibda hal etishga imkon beradi.

1.2 Xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimini moliyalashtirishning nazariy-uslubiy asoslari

Respublikamizda ta'limni rivojlantirish va moliyalashtirishning yangi, samarali shakllarni egallash mablag' bilan ta'minlashning ilg'or usullaridan foydalanishni taqozo etadi. Bu sohada ilg'or va rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganish va mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini hisobga olgan holda kengaytirishga ehtiyoj sezilmoqda.

Rivojlangan mamlakatlarda fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat barpo etishning muhim asoslaridan biri - ta'lim tizimini takomillashtirish, uni islohotlarning ustivor yo'nalishlardan biri, deb qarash tamoyiliga kiritilganligi bejiz emas.

Ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda ta'limga sarflanayotgan mablag'larning eng ko'p qismi davlat budjetidan ajratiladi, shuningdek, mintaqaviy va mahalliy budjetlar mablag'lari, sanoat korxonalarining, ijtimoiy fondlarning jamg'armalari, jismoniy shaxslarning shaxsiy mablag'lari safarbar etiladi.

Ta'limni moliyalashtirish ham, boshqarish ham bir qancha omillarga bog'liqdir, xususan, davlatning tuzilishi, milliy ta'lim tizimi va uni boshqarish tizimi, tarixiy va madaniy an'analar, xalqning mentaliteti shular jumlasidandir. Boshqaruvning nomarkazlashtirilgan tizimlariga ega bo'lgan mamlakatlarda ta'limni moliyalashtirish har xil sxemalar bo'yicha amalga oshiriladi, ular mamlakatdagi ta'lim sohasini boshqarish tipiga hamma vaqt ham javob bermaydi va aralash ko'rinishda bo'ladi.

Ta'limni moliyalashtirish uchun javobgarlikni taqsimlash - ta'lim berish va uni boshqarish uchun vakolatlar va javobgarlikni taqsimlashga muvofiq keladi. Masalan, ta'limni boshqarishning markazlashtirilgan tizimlariga ega bo'lgan mamlakatlarda umumiy xarajatlarning ko'pchilik qismi bo'yicha qarorlar markaziy hokimiyatlar tomonidan qabul qilinadi. Ta'limni nomarkazlashtirilgan tartibda moliyalashtirishning har xil tiplari va namunalari ustunlik qiladi, faqat ayrim mamlakatlarda ta'limni davlat budjetidan markazlashtirilgan tartibda to'g'ridan-

to'g'ri va to'liq moliyalashtirish qayd etiladi. Lekin rivojlangan mamlakatlarda ta'limni moliyalashtirishda faqat markazlashgan yoki faqat nomarkazlashgan tizim ma'qul, degan fikr ustuvor emas. Bugungi kunda ta'limni boshqarishda markazlashtirish yoxud markazlashtirishdan chiqarish darajasini tahlil etish mezonlarining yagona tizimi mavjud emas.

Bizning fikrimizcha, kasb-hunar ta'limini davlat tomonidan mablag' bilan ta'minlash miqdori bilan o'qitishning sifati o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik bo'lishi kerak. Masalan, boshlang'ich tayyorgarlik kurslariga xarajatlar samaraliligining baholash ko'rsatkichi kasb-hunarga o'qitish yoki malaka oshirish kurslarining ana shunday ko'rsatkichlari bilan taqqoslanadi. Bunday tahlil natijalari mablag'larning yuqoriroq samaraliligiga erishiladigan va kapital qo'yilmalardan yuqoriroq daromad olinadigan dasturlar foydasiga qayta taqsimlash imkonini beradi.

Hozirgi sharoitda iqtisodiy rivojlanish muammolarini hal qilish uchun ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosiy omili – jami ishchi kuchining to'liq safarbar etilishi va faolligi ta'minlanishi zarur. Bunda millatning ma'naviy va madaniy rivojini, intellektual salohiyatini yuksaltirish omili sifatida qaralayotgan ta'limning ahamiyati beqiyos. Darhaqiqat, Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, "Maqsadlarimizga erishish, yangi demokratik jamiyatni qurish, islohotlarning taqdiri qanday intellektual kuchlarga egaligimizga, yoshlarimiz qanday madaniy va professional saviyaga erishganligiga, qanday ideallarga e'tiqod qilishiga, ma'naviy jihatdan qanchalik boyishiga bog'liq. Shu bois aholining ma'lumot olish imkoniyatini oshirish, milliy tiklanish g'oyasini amalga oshirish asosiy vazifalarimizdan biridir"⁸. Shuning uchun "ta'lim" - O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor yo'nalish deb e'lon qilingan.

⁸Ta'lim to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Oliy ta'lim me'yoriy hujjatlar to'plami – T.: 2001, 4-b.

Ta'lim tizimi rivojlanishining hozirgi holatiga baho berishda mamlakatimiz statistikasida qo'llanilayotgan ko'rsatkichlardan foydalanish mumkin.

Bozor iqtisodiyoti davrida ta'lim tizimining milliy iqtisodiyotga ta'sirini uni yalpi ichki mahsulotni yaratishdagi hissasi asosida aniqlash maqsadga muvofiq. Ma'lumki, yalpi ichki mahsulot xarajatlar yoki daromadlar usulida hisoblanadi.

Shundan kelib chiqqan holda ta'lim tizimining milliy iqtisodiyotga ta'sirini (M_T) quyidagi ifoda yordamida hisoblash mumkin:

$$M_T = \frac{T_x}{YaIM} \cdot 100 \%$$

Bunda: T_x – bir yilda ta'limga sarflangan xarajatlar miqdori.

AQShdagi o'quv yurtlari o'qitish, tadqiq qilish va ijtimoiy, madaniy vazifalarni bajarishga qobillik bilan birga o'qishni davom ettirish yoki samarali faoliyat uchun tayyorgarlikni ta'minlaydi, shuningdek, insoniylik va mas'uliyat, qilmishlariga javobgarlik ruhida tarbiyalash imkoniyatini ham beradi. Bu hududiy ta'lim ijtimoiy taraqqiyotni harakatlantiruvchi kuch (inson taraqqiyotining muhim sharti va tarkibiy qismi)dan asta-sekin insonning asosiy maqsadlaridan biriga aylandi. Chunki Qo'shma Shtatlarda AQSh Prezidenti Eyzenxauer 1958 yildayoq ta'kidlaganidek, "Hozirda ta'limni kengaytirish va uning imkoniyatlarini yaxshilash masalasidan muhimroq vazifa yo'q" deb qaraldi. Texnika va texnologiya taraqqiyoti, inson huquqlari sohasida demokratik tuzumga erishish, davlat institutlari rivojlanishi, xususiy tashabbus va ishbilarmonlik – bularning barchasi ta'lim tizimi negiziga aylanib bordi. Ijtimoiy taraqqiyot uchun boshlang'ich va umumiy o'rta ta'limning majburiyligi ham (AQShda qabul qilingan qonunlarga muvofiq 8 yoki 10 yil) muhim ahamiyat kasb etdi⁹.

⁹ Shu va keying o'rinlarda AQSh ta'lim tizimini to'g'risidagi ma'lumotlar blogs.voanews.com saytidan keltirildi.

Qo'shma shtatlarda ta'lim tizimi tanlov imkoniyatlarini kengaytirish borasida bir qancha afzalliklar va kamchiliklarga ega. Uning afzalliklari quyidagilarda namoyon bo'ladi: o'quv dasturlari va uslublarining turli-tumanligi; o'quv dasturlarining muntazam ravishda o'zgartirib turilishi; har bir shaxsning o'zi yashayotgan jamiyat ehtiyojlari va imkoniyatlariga mos keladigan darajadagi barkamolligiga erishish; oliy o'quv yurtlariga qabul va mamlakat miqyosida mutaxassislar tayyorlash reja asosida olib borilmasligi talabalarga xohlagan kasb, mutaxassislik va faoliyat sohasini tanlash imkonini beradi. Oliy o'quv yurtlarida ta'lim olayotganlar har qanday holda ham talabalar safidan chiqarilmaydi, ular imtihonlarni bir necha marta qayta topshirish imkoniyatiga ega. Kamchiliklar esa, xususan, oliy o'quv yurtlariga talabalar qabul qilish mamlakat miqyosida mutaxassislar tayyorlash reja asosida olib borilmasligi, bu kadrlar tarkibiga salbiy ta'sir ko'rsatishi (bu holat so'nggi yillarda ko'proq kuzatilmoqda) va ishsizlik darajasi o'sishiga olib kelishi, bu esa ijtimoiy-iqtisodiy muammolar hal qilinishini qiyinlashtirayotgani borasida fikr yuritadigan bo'lsak, hozirgi vaqtda ta'lim tizimining muhim bosqichi – o'rta maktablarda o'quvchilarning katta qismi (giyohvandlik va alkogolizm tarqalishi, intizom pastligi va boshqa sabablarga ko'ra) o'qishni tashlab ketish (tahsil olishni boshlaganlarning 68,8 %i o'rta maktabni tamomlaydi, xolos) hollari ko'p uchraydi.

AQSh ta'lim tizimining uzoq sog'lom hayot kechirish nuqtai nazaridan afzalliklari quyidagilardan iborat: quyi o'rta maktablar – oraliq xususiyatga ega o'quv muassasalarining mavjudligi. Bu, o'quv-tarbiyaviy ishlar mazmunini o'smirlik davridagi rivojlanish xususiyatlariga moslashtirish imkoniyatini beradi.

Yana bir e'tiborli tomoni – bu hududda bolalar bog'chalari dasturlariga ham, o'rta maktablarning bitiruvchi sinflari o'quv dasturlariga ham salomatlik to'g'risidagi umumiy kurs kiritilgan. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, ta'lim darajasining oshishi umr ko'rish muddati uzayishi bilan ijobiy bog'liqdir.

AQSh ta'lim tizimi asosiy imkoniyatlarga teng egalik tamoyiliga asoslangan. So'nggi o'n yillikda erkaklar va ayollarning ta'lim olishdagi tengligi borasida katta ijobiy o'zgarishlarga erishildi. Hatto ta'lim oluvchilar o'rtasida ayollar ulushi (56%) va o'qishga yalpi jalb qilinganlar tarkibidagi salmog'i oshishi (ayollar – 98%, erkaklar – 93%) kuzatilmoqda. Ammo ta'lim sohasida hamon iqtisodiy va milliy muammolar mavjud.

Sanoatlashgan ko'pgina mamlakatlarda, jumladan, Angliyada maktab o'quvchilari uchun o'qish me'yori kuniga 8 soat va bir yilda 220 kun. AQShda esa bu jarayon kuniga 6 soatni, yiliga esa 180 kunni tashkil etadi. AQSh o'quv yurtlarining ko'pchiligida ovqat tayyorlash va avtomobilni haydashga o'rgatish vaqti diplom olishda matematika, ingliz tili, kimyo, Vatan tarixi yoki biologiya fanlarini o'rganish vaqti qatorida hisobga olinadi. Ko'pgina maktablarda o'quvchilar intizomga o'rgatilmagan va muntazam o'qish tajribasiga ega emas. O'qituvchilarni tayyorlash dasturlari har bir fan bo'yicha o'qitiladigan o'qitish uslubiyati kurslari bilan o'ta yuklatilgan. O'qituvchilar tayyorlovchi 1350 o'quv yurti faoliyati tahlili natijalari ko'rsatishicha, bo'lajak boshlang'ich maktab o'qituvchisi o'qish vaqtining 41% ini umumta'lim kurslarini o'rganishga sarflaydi, bu esa, ularning maxsus bilimlarni egallash imkoniyatlarini ancha kamaytiradi. 12 yil dars bergan o'qituvchining yillik ish haqi 17000 dollarni tashkil etadi. Shu bois, ko'pgina o'qituvchilar qo'shimcha ishlashga majbur. Ular amalda darsliklarni tanlash kabi muhim masalaga ta'sir ko'rsatish imkoniyatlariga ega emaslar. O'qituvchilar soni haddan tashqari ko'p, degan fikr keng tarqalishiga qaramay, ma'lum fanlar: matematika, tabiiy fanlar va chet tillari bo'yicha o'qituvchilar yetishmaydi, iqtidorli o'quvchi va talabalar, mayda millat vakillari va nogironlarni o'qitadigan mutaxassislar ham yetishmaydi.

Milliy Komissiya, yuqoridagilardan kelib chiqib, o'rta maktablar uchun bitiruv talablarini kuchaytirishni taklif etadi. Bu jarayonda barcha o'quvchilar besh asosiy kursni: ingliz tilini – 4 yil; matematikani - 3 yil; tabiiy fanlarni – 3 yil; ijtimoiy fanlarni – 3 yil; kompyuter kurslarini – 1,5 yil o'rganishlari kerak.

Qo'shimcha ravishda kollejlarda uchun 2 yil chet tilini o'qitish qat'iy tavsiya qilinadi.

Baholash akademik o'zlashtirishda shunday ko'rsatkich bo'lishi kerakki, unga asosan o'quvchining bundan keyingi o'qishga tayyorligi to'g'risida xulosa chiqarish mumkin bo'lsin. Bu jarayonda:

- 4 yillik kollej va universitetlar qabul qilinuvchilarga talablarni oshirishlari va bu to'g'rida bo'lg'usi talabalarga axborot berib turishlari;

- o'quvchilarning standartlashtirilgan bilim testlari asosiy bosqichlarda, ayniqsa, o'rta maktabdan kollej yoki ishga o'tishda qo'llanilishi;

- darsliklar, boshqa o'quv va o'quv-uslubiy qo'llanmalar yaxshilanishi va yangilanishi;

- maktab o'quvchilariga hozirgiga nisbatan ko'proq hajmda uy vazifalari berib borish;

- samarali o'qish, kasb mahoratini oshirish va vaqtdan unumli foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar boshlang'ich sinflardan tortib maktabni bitirgunga qadar berib borilishi;

- 7 soatlik maktab kuni va 200-220 kunlik o'qish yilini joriy qilish;

- rivojlanmagan, qoloq hamda iqtidorli o'quvchilarga qo'shimcha vaqt ajratish;

- vaqt behuda ketishini kamaytirish maqsadida darslarga qatnashmaydigan va kechikib keladigan talabalarga nisbatan jazolash choralaridan foydalanish;

- o'quvchilar guruhlarini shakllantirish, bosqichdan bosqichga o'tkazish va o'qishni tugatish siyosatida qat'iy yosh mezonlariga nisbatan ko'proq o'quvchilarning akademik rivojlanishiga tayanmoq;

- o'qituvchi bo'lishga tayyorlanayotgan shaxslar yuqori ta'lim standartlari talablariga javob berishlari, o'qitish qobiliyatlariga ega bo'lishlari va maktab fanlarini yaxshi bilishlari;

- o'qituvchilar ish haqini shunday o'zgartirish kerakki, u ish haqining bozor darajasiga muvofiq kelishiga va zamonga mos, malakali o'qituvchilarni rag'batlantirishiga erishish imkonini berishi;

- maktab rahbariyati o'qituvchilarga nisbatan 11 oylik kontrakti joriy qilishi;

- o'qituvchilar yetishmasligi muammosini hal qilish maqsadida boshqa sohadagi mutaxassislarni jalb qilish;

- pedagogika sohasiga iqtidorli talabalarni jalb qilish uchun qo'shimcha rag'batlar, masalan, grantlar va kreditlardan foydalanish;

- yuqori sinf o'qituvchilarini tayyorlash dasturlarini ishlab chiqish va stajyorlar ustidan nazoratni yo'lga qo'yish zarur.

I bob bo'yicha xulosalar

Bob bo'yicha xulosa qilar ekanmiz, avvalambor "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning 31-moddasiga muvofiq davlat ta'lim muassasalarini moliyalash respublika va mahalliy budjetlar mablag'lari, shuningdek budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi.

Ta'lim muassasalari ta'lim muammolari yuzasidan xalqaro hamkorlikda ishtirok etadilar, chet davlatlarning tegishli o'quv yurtlari bilan bevosita aloqalar o'rnatish, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ular bilan qo'shma o'quv yurtlari tashkil etish huquqiga ega.

Davlat budjetidan ta'lim muassasalarini moliyalashtirish islohotlargacha bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy modelga to'g'ri keladi – davlat o'z budjetida mamlakat milliy daromadining sezilarli qismini to'plagan holda, keng rivojlangan ta'lim muassasalari tarmog'ini ularning asosiy ehtiyojlarini qondiradigan darajada saqlash imkoniyatiga ega bo'ldi.

II BOB. MAMLAKATIMIZDA XALQ TA'LIMI TIZIMINI MOLIYALASHTIRISH AMALIYOTINING TAHLILI

2.1 Xalq ta'limi tizimini moliyalashtirish manbalari va ularning dinamik tahlili

Ta'limni moliyalashtirish tizimi mustaqillik yillarida ma'lum o'zgarishlarni boshidan kechirdi, lekin davlat resurslaridan foydalanishdagi o'ziga xos xususiyatlarni saqlab qoldi, unda asosiy moliyalashtirish manbai – davlat budjeti bo'lib, davlat budjetidan ta'lim muassasalarini saqlashga ajratmalar budjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartiblari va tamoyillari asosida ajratiladi.


Davlat budjetidan moliyalashtirish quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- mablag'larni sarflashda tejamkorlik tartibiga rioya qilish, pul sarflarining eng kam bo'lishiga intilish;
- budjet mablag'laridan maqsadli foydalanish, ya'ni faqat aniqlangan va oldindan asoslangan maqsadlarga ularni smeta moddalari o'rtasida qayta taqsimlashsiz ishlatish;
- davlat ta'lim muassasalarining moliyaviy faoliyati ustidan yuqori tashkilotlar hamda moliya organlari tomonidan muntazam nazoratni olib borish.

O'zbekiston aholisining 60 foizdan ko'prog'ini bolalar va o'smirlar tashkil qiladi. Tabiiyki, ularni o'qitish, tarbiyalash, kasbga yo'naltirish va mutaxassis kadr qilib tayyorlash masalalari zamonning dolzarb masalasi bo'lmog'i zarur.

Ta'lim muassasalari eng keng tarqalgan davlat muassasalari hisoblanadi. Ularni qurish, mavjudlarini saqlash, moddiy-texnikaviy jihatdan ta'minlash, kadrlar masalasini hal qilish kabilar tarixan davlat mablag'lari evaziga amalga oshirilib kelingan. Ta'lim tizimining joriy va kapital xarajatlarini moliyalashtirishda davlat budjetining ahamiyati hali ham katta. Davlat budjetining ijtimoiy-madaniy sohalarni saqlash xarajatlari tarkibida asosiy o'rinni xalq ta'limi xarajatlari egallaydi.

Mamlakatimizda xalq ta'limi tizimidagi ta'lim muassasalari tarkibini ko'radigan bo'lsak (2.1.1-rasmga qarang).



2.1.1-rasm. Xalq ta'limi tizimidagi ta'lim muassasalari (2014 yil)¹⁰

Rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, xalq ta'limi tizimidagi ta'lim muassasalaridan, maktabgacha ta'lim 4962 tani, bolalar va o'smirlar maktablari 473 tani, musiqa va sa'nat maktablari 304 tani, pedagogika institutlari 5 tani, malaka oshirish institutlari 6 tani, barkamol avlod bolalar markazi 211 tani, mehribonlik uylari 27 tani, umumiy o'rta ta'lim maktablari 9765 tani tashkil etgan.

Muassasaning sanab o'tilgan budjetdan tashqari tushumlari, shuningdek, budjetdan moliyalashtirish bo'yicha iqtisod qilingan (kvartal/yilning so'nggi ish kuniga) mablag'lar budjet tashkilotini rivojlantirish Fondining manbalari hisoblanadi, mazkur Fond yuqorida nomi zikr etilgan hukumat qarori asosida shakllantiriladi va ishlatiladi.

Bugungi kunda maktab ta'limi tizimini moliyalashtirishning ko'pkanalli tizimi shakllangan bo'lib, maktab ta'limi moliyaviy resurslarning quyidagi manbalariga ega.

Davlatdan moliyalashtirish manbalari:

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi hisobotlari asosida tayyorlandi. 2012-2014yil .www.uzedu.uz

- davlat (respublika va mahalliy) budjeti
- davlat maqsadli fondlari (masalan, Maktab ta'limi fondi)

Nodavlat moliyalashtirish manbalari:

- tadbirkorlar va homiylarning moliyaviy yordamlari;
- jamoatchilik yordamlari;
- ota-onalarning (o'qitish uchun) to'lovlari, qo'shimcha pullik ta'lim;
- xorijiy kreditlar va grantlar;
- boshqa xususiy manbalar (masalan, hayriya tashkilotlari);
- ta'lim muassasalarining o'z tadbirkorlik faoliyatidan daromadlari va tushumlari.

Uzoq yillar mobaynida davlat budjetining ijtimoiy sohalarni moliyalashtirishda yagona manba bo'lib kelganligi hech kimga sir emas. Ta'lim tizimi ham klassik ijtimoiy soha sifatida bir necha o'n yilliklar davomida to'lig'icha budjetga qaram soha bo'lib kelgan. Hozirgi kunda ham budjet xarajatlarining aksariyat qismi maorif tizimini ta'minlashga safarbar etilmoqda.

Shuni ta'kidlash kerakki, davlatimizning ta'lim tizimiga ajratadigan mablag'lari mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmiga nisbatan hisoblaganda boshqa mamlakatlarga qaraganda birmuncha yuqori. Bunga sabab, keyingi yillarda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni boqichma-bosqich amalga oshirish doirasida yangi va zamonaviy, barcha talablarga javob beradigan akademik liseylar va kasb-hunar kollejlari qurilib, foydalanishga topshirildi, mavjudlari ta'mirlanib, moddiy-texnikaviy ta'minoti yaxshilandi. Rivojlanishning ma'lum bosqichiga kelib, 2004-2009 yillar mobaynida amalga oshirilishi mo'ljallangan Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi qabul qilindi. Dasturga «umummilliylik» maqomining berilishi bejiz emas, chunki maktab ta'limining mustahkam bo'lishidan butun jamiyat manfaatdor. Shuning uchun respublikadagi barcha vazirliklar, idoralar, kompaniyalar, uyushmalar va boshqa xo'jalik birlashmalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, shaharlar va tumanlar hokimliklari ta'lim tizimiga yo'naltiriladigan resurslarni shakllantirishda keng ko'lamda ko'mak va har tomonlama yordam berishlari maqsadga muvofiq.

Davlatning ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan xarajatlari faqat ijtimoiy emas, balki iqtisodiy ahamiyatga ega, u jamiyatning iqtisodiy salohiyatini oshirishga yordam beradi, chunki davlat amalga oshirayotgan, aholining barcha qatlamlari manfaatlariga daxldor bo'lgan iqtisodiy faoliyat natijalari ijtimoiy soha xarajatlari orqali ro'yobga chiqadi.

Ijtimoiy madaniy sohalar iqtisodiyotning katta bir bo'lagi hisoblanadi, jamiyat va uning azolariga nomoddiy xususiyatdagi xizmat ko'rsatish vazifasini amalga oshirish bilan shug'ullanadi. Fuqarolarning ijtimoiy ta'minotga bo'lgan huquqi asosiy qonunimiz bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi tomonidan kafolatlanadi. Ijtimoiy yordam tizimini huquqiy atrofda barpo etish va bu boradagi qonunlarning ijro etilishining moliyaviy ta'minlash iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Aholini ijtimoiy himoyalash masalasining ustuvorligi O'zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy jihatdan himoya qilish, bozor iqtisodiyotiga o'tish dasturining eng ustuvor yo'nalishi sifatida tan olindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov tomonidan ilgari surilgan bozor munosabatlariga o'tishning besh tamoyilidan biri, aholini demagrafik tarkibini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosat yuritish hisoblanadi. Shu sababli mahalliy budjetlardan aholining kam ta'minlangan qatlamlariga to'lanadigan ijtimoiy to'lovlar hajmi oshib boradi. Ijtimoiy soha xarajatlarining 80 foizi va aholini ijtimoiy himoyalash xarajatlarining 100 foizi mahalliy budjetlardan amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasida budjet ijrosining amaldagi holatidan kelib chiqqan holda mahalliy budjetlar hukumatning iqtisodiy ijtimoiy siyosatining amalga oshirishda mavqeyini yanada ko'tarishga sabab bo'layotgan qator omillarni ajratib ko'rsatish mumkin. Barcha darajadagi budjet xarajatlarining oshishi bozor munosabatlari sharoitida kuchli ijtimoiy siyosatning amalga oshirilishi bilan bog'liq. Bu xarajatlar jumlasiga aholini ijtimoiy himoyalash bo'yicha chora tadbirlar uchun ajratiladigan xarajatlar hisoblanadi, ular ko'p bolali oilalar va kam ta'minlangan oilalarga beriladigan nafaqalar hamda budjet hisobidan aholiga

ijtimoiy ahamiyatdagi xizmatlarga quyiladigan narxlardagi farqlarni qoplashni o'z ichiga oladi.

Quyidagi jadvalda Davlat budjeti xarajatlari tarkibida ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvatlash xarajatlari miqdorini ko'rib chiqamiz.

2.1.1-jadval

Davlat budjeti xarajatlari tarkibida ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvatlash xarajatlari miqdori¹¹ (2011-2013 yillar)

Ko'rsatkichlar	2012-yil		2013-yil		2014-yil	
	mlrd. so'm	%	mlrd. so'm	%	mlrd. so'm	%
Davlat budjeti xarajatlari	16991	100	21571	100	25825,9	100
Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvatlash xarajatlari, jami	10112	60	12513	58	15147	58
ta'lim	5890	35	7223	33	8803.2	34
Sog'liqni saqlash	2217	13	2820	13	3709.9	14
madaniyat va sport	194	1,1	226	1	287.4	1
Ilm-fan	111	0,6	140	0,6	164.7	0.6
ijtimoiy ta'minot	74	0.4	93	0.4	106.4	0.4
oilalarga ijtimoiy nafaqalar	1582	9,3	1899	8,8	1611.3	0.6

Keltirilgan jadvaldan ko'rinib turganidek, davlat budjeti xarajatlari 2012-yilda 16991 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2013-yilga kelib esa 21571 mlrd.so'mni tashkil etgan bo'lsa 2014-yil ma'lumotlariga ko'ra 25825.9 mlrd.so'mni ko'rishimiz mumkin. Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvatlash xarajatlari esa 2012 yilda – 10112 mlrd. so'm, 2013 yilda 12513 mlrd. so'mdan iborat bo'lgan, 2014-yil yakunlariga ko'ra 15147 mlrd.so'mni kuzatishimiz mumkin.

Quyidagi jadvalda O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan 2007-2014 yillarda ijtimoiy soha xarajatlari va ta'lim xarajatlari tarkibini ko'rib chiqamiz.


¹¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli yillardagi "Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar pragnozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi Qarorlari asosida tayyorlandi.

2.1.2-jadval

**2007-2014 yillarda O'zbekiston Respublikasi davlat budgetining
ta'lim sohasiga xarajatlari¹² (foizda)**

Ko'rsatkichlar	yillar							
	2007	2008	2009	2010	2011	2012	2013	2014
Davlat budjeti xarajatlari	100	100	100	100	100	100	100	100
Ijtimoiy-madaniy soha xarajatlari	47,6	47,3	45,0	47,0	59,1	59,5	58	58
Ta'lim xarajatlari	30,5	31,9	31,6	32,6	33,8	34,6	33,4	34

Davlat budjeti xarajatlari tarkibida ijtimoiy-madaniy soha xarajatlari 2007 yilda 47,6 foizni tashkil qilgan bo'lsa, ta'lim xarajatlari 30,5 foizni tashkil qilgan, bu ko'rsatkich 2013 yilga kelib ijtimoiy-madaniy soha xarajatlari 58,0 foizni tashkil qilgan bo'lsa, ta'lim xarajatlari 33,4 foizni, 2014 yilga kelib ijtimoiy-madaniy soha xarajatlari 58 foizni tashkil qilgan bo'lsa, ta'lim xarajatlari 34 foizni tashkil qilgan. Tahlil jarayonida shuni ko'rsatadiki Davlat budjeti xarajatlari tarkibida ijtimoiy-madaniy soha xarajatlari o'sish tendensiyasiga ega.



2.1.2-rasm. Talim xarajatlarining ijtimoiy-madaniy soha xarajatlaridagi salmog'i¹³

2.1.2-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, ijtimoiy-madaniy soha xarajatlari tarkibida 2007 yilda ta'lim xarajatlari 30,5 foizni, 2008 yilda 31,9 foizni, 2009 yilda 31,6 foizni, 2010 yilda 32,6 foizni, 2011 yilda 33,8 foizni, 2012 yilda 33,4

¹² O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hisobotlari asosida tayyorlandi www.mf.uz

¹³ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hisobotlari asosida tayyorlandi www.mf.uz

foizni, 2013 yilda 34,1 foizni tashkil qilgan. Tahlil jarayonida shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy-madaniy soha xarajatlari tarkibida ta'limga qilanadigan xarajatlarning salmog'i yildan yilga ortib bormoqda.

Ta'lim muassasalari eng keng tarqalgan davlat muassasalari hisoblanadi. Ularni qurish, mavjudlarini saqlash, moddiy-texnikaviy jihatdan ta'minlash, kadrlar masalasini hal qilish kabilar tarixan davlat mablag'lari evaziga amalga oshirilib kelingan. Ta'lim tizimining joriy va kapital xarajatlarini moliyalashtirishda davlat budjetining ahamiyati hali ham katta. Davlat budjetining ijtimoiy-madaniy sohalarni saqlash xarajatlari tarkibida asosiy o'rinni xalq ta'limi xarajatlari egallaydi.

Ta'lim muassasalarining budjetdan tashqari tijorat faoliyatini rag'batlantirish va ularga o'z moliyaviy sharoitlarini yaxshilash uchun shart-sharoit yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 7 iyun 263-son Qaroriga muvofiq, barcha umumta'lim muassasalari:

- Vazirlar Mahkamasining 414-son Qarori bilan ko'zda tutilgan daromadlari bo'yicha barcha soliqlar va yig'imlarni to'lashdan;

- budjetdan tashqari daromadlari bo'yicha davlat maqsadli fondlariga majburiy ajratmalarni to'lashdan 2010 yil 1 yanvargacha ozod etilganlar.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 21 noyabrdagi "Ta'lim muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasini ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi etib qayta tashkil qilish to'g'risida"gi PQ-1645-sonli qarori bilan tashkil etildi.

Ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Jamg'armaga kelib tushayotgan mablag'larni keyinchalik ulardan ta'lim muassasalari - umumta'lim maktablari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari jihozlash (to'liq jihozlash) maqsadida foydalanish uchun jamlash;

- ta'lim muassasalarini rekonstruktsiya qilish va mukammal ta'mirlash, shu jumladan, zarur hollarda o'quv korpuslarini o'quv ustaxonalari va laboratoriyalar bilan kengaytirish, sport zallari va maydonchalarini hamda boshqa infratuzilma ob'ektlarini barpo etish bo'yicha ishlarni moliyalashtirish;

- zamonaviy talablarni hisobga olgan holda, tasdiqlangan normativlardan kelib chiqib, ta'lim muassasalarini eng yangi o'quv-laboratoriya va ishlab chiqarish uskunalari, kompyuter texnikasi hamda axborot-kommunikatsiya ta'lim texnologiyalarining boshqa elementlari bilan, shuningdek o'quv mebeli va asbob-anjomlari bilan tizimli qayta jihozlash hamda to'liq jihozlashni moliyalashtirish;

- tasdiqlangan manzilli dasturlarga muvofiq sog'liqni saqlash muassasalarini qurish, rekonstruktsiya qilish va mukammal ta'mirlash bo'yicha ishlarni moliyalashtirish;

- zamonaviy talablar va belgilangan normativlardan kelib chiqqan holda, sog'liqni saqlash muassasalarini eng yangi laboratoriya, diagnostika va davolash uskunalari, kompyuter texnikasi hamda boshqa tibbiy apparatlar, maxsus mebel va anjomlar bilan jihozlashni hamda doimiy ravishda tizimli qayta jihozlashni moliyalashtirish.

Homiylar va grant beruvchilar tomonidan Jamg'armaga mablag'lar Jamg'armaning maqsad va vazifalariga zid bo'lmagan foydalanish maqsad va shartlari ko'rsatib taqdim etilgan hollarda, bu mablag'lar faqat homiylar va grant beruvchilarning ko'rsatmalariga muvofiq ishlatiladi.

2.1.3-javdal

**2012 -2014 yillarda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi
ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal
ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi daromadlar tarkibi¹⁴**


№	Daromad manbalari	2012 yil mlrd.so'm	2013 yil mlrd.so'm	2014 yil mlrd.so'm
1.	Jami daromadlar	796.6	918.6	1118.6
2.	Yil boshidagi qoldiq	28.5	27.2	8.6
3.	Majburiy ajratmalar	504	569.9	690.1
4.	Davlat budjeti mablag'lari	264	311.5	407.4
5.	Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va mahalliy hokimiyatlar mablag'lari	8.5	10	12.5

Keltirilgan jadvalda ma'lumotlarga e'tibor beradigan bo'lsak, 2012 yilga mo'ljallangan daromadlar xajmi 796.6 mlrd so'mni hamda 2013 yilda bu ko'rsatkich 918.6 mlrd so'mni va 2014 yil ko'rsatkichlarda esa 1118.6 mlrd so'mni tashkil etmoqda.

Maktab ta'limi jamg'armasi hisobidan O'zbekiston Respublikasi bo'yicha 2012-2013 yillarda buzib tashlanadigan umumta'lim maktablari o'rniga yangi maktablar qurish, ularni kapital rekonstruktsiya qilish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari amalga oshiriladi. Jumladan 381 ta umumta'lim maktabi, rekonstruktsiya qilindi va kapital ta'mirlandi. Shuningdek, 55 ta bolalar musiqa va san'at maktabi, 112 ta bolalar sporti ob'ekti va 4 ta suzish havzasi foydalanishga topshirilib, ularning barchasi zarur uskuna va inventarlar bilan jihozlandi. Bu o'z vaqtida Kadrlar tayyorlash milliy dasturini ijobat bo'lishiga, shuningdek yosh avlodga uzluksiz ta'lim berish va uni davr talabiga mos ravishda tarbiyalash jarayonini tezlashtirishga yaqindan yordam beradi.

Shakllangan daromad manbalarini foizlarda tahlil qilish uchun 2.1.3-rasmga murojaat qilamiz.

¹⁴ Jadval O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi materiallari asosida tuzilgan. www.mf.uz



2.1.3-rasm. 2012-2014 yillarda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi daromadlar tarkibi foizlarda¹⁵

Keltirilgan rasm ma'lumotlarga e'tibor beradigan bo'lsak, 2012-2014 yillarda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi daromadlar tarkibi asosiy uch guruhdan iborat bo'lib, ushbu jamg'arma jami daromadlaridagi ulushi tarkibida majburiy ajratmalar 2012-yilda 63%ni, 2013-yilda 61%ni 2014-yilda esa 62%ni tashkil etgan, shuningdek davlat budjeti mablag'lari 2012-yilda 33%ni, 2013-yilda 32% ni 2014-yilga kelib bu ko'rsatkich 36%ga oshganini ko'rishimiz mumkin va nihoyat mahalliy hokimiyat mablag'lari sezilarsiz darajada ekanligini ko'rishimiz mumkin ushbu ko'rsatkich 2012-2014-yillar davomida jami daromadlarning 2%-4% ulushini egallaydi.

Ta'lim muassasalarining barpo etilgan moddiy-texnika bazasidan samarali foydalanish va muttasil yangilab borishni ta'minlash, ularni tizimli asosda eng

¹⁵ Jadval O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi materiallari asosida tuzilgan. www.mf.uz

zamonaviy kompyuter texnikasi, o'quv-laboratoriya uskunalari, mebel va asbob-anjomlar bilan qayta jihozlashni, shuningdek ilg'or ta'lim texnologiyalari va axborot-kommunikasiya tizimlarini o'quv jarayoniga keng tatbiq etish maqsadida:

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2011 yil 1 yanvaridan boshlab O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Maktab ta'limi jamg'armasi tugatilib, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Ta'lim muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash bo'yicha budjetdan tashqari jamg'arma tashkil etildi.

Ta'lim muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash bo'yicha budjetdan tashqari jamg'armaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Jamg'armaga kelib tushayotgan mablag'larni keyinchalik ulardan ta'lim muassasalari — umumta'lim maktablari, akademik liseylar va kasb-hunar kollejlarini jihozlash (to'liq jihozlash) maqsadida foydalanish uchun jamlash;

- ta'lim muassasalarini rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash, shu jumladan, zarur hollarda o'quv korpuslarini o'quv ustaxonalari va laboratoriyalar bilan kengaytirish, sport zallari va maydonchalarini hamda boshqa infratuzilma ob'ektlarini barpo etish bo'yicha ishlarni moliyalashtirish;

- zamonaviy talablarni hisobga olgan holda, tasdiqlangan normativlardan kelib chiqib, ta'lim muassasalarini eng yangi o'quv-laboratoriya va ishlab chiqarish uskunalari, kompyuter texnikasi hamda axborot-kommunikasiya ta'lim texnologiyalarining boshqa elementlari bilan, shuningdek o'quv mebeli va asbob-anjomlari bilan tizimli qayta jihozlash hamda to'liq jihozlashni moliyalashtirish.

Tugatilayotgan budjetdan tashqari Maktab ta'limi jamg'armasining barcha aktiv va passivlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Ta'lim muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash bo'yicha budjetdan tashqari jamg'armaga topshiriladi.

Ta'lim muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash bo'yicha budjetdan tashqari jamg'armaning daromadlarini shakllantirish manbalari:

- xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan Jamg'armaga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda majburiy ajratmalarni to'lashdan tushadigan mablag'lar;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining budjetdan tashqari mablag'lari;

- xalqaro moliya institutlari hamda boshqa xorijiy donorlarning grantlari va imtiyozli kreditlari (qarzlari);

- xayriya qiluvchilar — yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining mablag'lari;

- Jamg'armaning vaqtincha bo'sh mablag'larini joylashtirishdan olinadigan daromadlar va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa tushumlar.

Jamg'armani boshqarish bo'yicha Kengash Ta'lim muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasini boshqarishning yuqori organi hisoblanadi.

Quyida keltirilayotgan 2.1.4-jadvalda ma'lumotlarga e'tibor beradigan bo'lsak, Ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasining 2014 yilda mo'ljallangan daromadlar hajmi, jami 918,6 mlrd.so'mni, 2014-yil boshiga qoldiq mablag'lari 27,2 mlrd.so'mni, jamg'armaga majburiy ajratma 569,9 mlrd.so'mni, O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti mablag'lari, alohida satrda ajratiladigan sog'liqni saqlash xarajatiga va markazlashtirilgan investitsiyadan 311,5 mlrd.so'mni, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar mahkamasi viloyat hokimiyatlari va Toshkent shahri mablag'lari hisobiga kelib tushgan tushumlar 10,0 mlrd.so'mni tashkil etgan.

2.1.4-jadval

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi¹⁶

t/r	Ko'rsatkichlar	2014 yil	
		mlrd.so'm	Foizda
	Daromadlar , jami	918,6	100,0
1	2014-yil boshiga qoldiq mablag'lar	27,2	3,0
2	Jamg'armaga majburiy ajratma	569,9	62,0
3	O'z.R davlat budjeti mablag'lari, alohida satrda ajratiladigan sog'liqni saqlash xarajatiga va markazlashtirilgan investitsiyadan	311,5	33,9
4	Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar mahkamasi viloyat hokimiyatlari va Toshkent shahri mablag'lari hisobiga kelib tushgan tushumlar	10,0	1,1
	Xarajatlar, jami	918,6	100,0
1	Qurulish, rekonstruktsiya, mukammal ta'mirlash va jihozlash (jihozlashni davom ettirish), jami	747,6	81,4
	Shu jumladan:		-
1.1	Umumta'lim maktablari, jami	277,7	-
	Shu jumladan		
	Rekonstruktsiya	138,7	
	Mukammal ta'mirlash	63,0	-
	Kelgusi yillar uchun loyiha qidiruv ishlari	2,1	
	Jihozlash (jihozlashni davom ettirish)	73,9	
1.2	Kasb-hunar kolledjlari va litseylar, jami	158,3	-
	Shu jumladan		
	Yangi qurilish	26,6	
	Rekonstruktsiya	40,3	-
	Mukammal ta'mirlash	61,0	
	Kelgusi yillar uchun loyiha qidiruv ishlari	0,9	
	Jihozlash (jihozlashni davom ettirish)	29,7	
1.3	Sog'liqni saqlash obektlari bo'yicha, jami	311,5	-
	Shu jumladan		
	Yangi qurilish	43,9	
	Rekonstruktsiya	256,4	-
	Jihozlash (jihozlashni davom ettirish)	11,2	
2	Bolalar musiqa va san'at maktablari, musiqa asboblari, inventarlar va texnik qurollari bilan jihozlash	30,1	3,3
3	Bolalar sportini rivojlantirish fondi orqali musiqa va san'at maktablarini qurish va mukammal rekonstruktsiya qilish	117,4	12,8
4	Bolalar sporti ob'ektlarini normativlar asosida uskuna va inventarlar bilan jihozlash (yangilash)	15,0	1,6
5	2014-yil oxiriga qoldiq mablag'lar	8,6	0,9

Jamg'armaning rejalashtirilgan xarajatlar, jami 918,6 mlrd.so'mni, qurulish, rekonstruktsiya, mukammal ta'mirlash va jihozlash (jihozlashni davom ettirish), jami 747,6 mlrd.so'mni, bolalar musiqa va san'at maktablari, musiqa

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi ma'lumotlari.

asboblari, inventarlar va texnik qurollari bilan jihozlash 30,1 mlrd.so'mni, bolalar sportini rivojlantirish fondi orqali musiqa va san'at maktablarini qurish va mukammal rekonstruktsiya qilish 117,4 mlrd.so'mni, bolalar sporti ob'ektlarini normativlar asosida uskuna va inventarlar bilan jihozlash (yangilash) 15,0 mlrd.so'mni, 2013-yil oxiriga qoldiq mablag'lar 8,6 mlrd.so'm tashkil etadi.

Mahalliy budjet xarajatlarini guruhlanishida mamlakatimizda qabul qilingan, "O'zbekiston Respublikasining budjet tizimi to'g'risida" gi qonuning 23-moddasiga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, Toshkent Shahar budjeti, viloyatlar va uning tarkibidagi tumanlar va Shaharlar budjeti quyidagilarga mo'ljallangan xarajatlarni amalga oshirishlari mumkin fan, ta'lim, madaniyat, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport (Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar budjetlaridan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlari bo'yicha);

- ijtimoiy ta'minot;

- aholini ijtimoiy himoya qilish;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini ta'minlash;

- iqtisodiyot turli tarmoqlarining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar budjet tashkilotlarini saqlash;

- qonun xujjatlariga muvofiq iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishning maqsadli dasturlari va tadbirlarini amalga oshirish;

- qonun xujjatlarida nazarda tutilgan boshqa maqsadlar.

Umumta'lim maktablari uchun darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalarni moliyaviy mablag'larni birlashtirish yo'li bilan budjet va budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan chop etish, etkazib berish va sotishning barqaror hamda uzluksiz moliyalashtirilishini ta'minlash, shuningdek, ulardan maqsadli foydalanishni samarali boshqarish va amalda nazorat qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida Respublika maqsadli kitob jamg'armasini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-363-son Qarori (01.06.2006y) e'lon qilindi. O'zbekiston

Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Moliya vazirligi, "Kamolot" O'zbekiston yoshlar ijtimoiy harakati, Respublika "Mahalla" hayriya jamg'armasi, Umumta'lim maktablarining pedagoglar jamoatchiligi va o'quvchilarning ota-onalari qo'mitalarining takliflari asosida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida budjetdan tashqari Respublika maqsadli kitob jamg'armasi tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan Iqtisodiyot vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi va Moliya vazirligi bilan birgalikda maktab mebeli va sport anjomlariga qo'yiladigan yagona talablar, shuningdek davlat ta'lim standartlari bilan o'zaro bog'langan umumta'lim maktablarini mebel va o'quv-laboratoriya asbob-uskunolari bilan jihozlash normativlari ishlab chiqildi va tasdiqlandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 19 fevraldagi PF-1910-son farmoyishi bilan tuzilgan Maxsus komissiya tomonidan ishlab chiqilgan 2005-2009 yillarda umumta'lim maktablarini mebel, zamonaviy o'quv-laboratoriya asbob-uskunolari, kompyuter texnikasi va sport anjomlari bilan jihozlash dasturi ishlab chiqildi va ma'qullandi.

2.2 Maktabgacha tarbiya muassasalari xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish

Maktabgacha tarbiya muassasalari xarajatlari smetasi Budjet tasnifining alohida xarajatlar turlari bo'yicha ishlab chiqiladi. Har bir modda bo'yicha xarajatlar tegishli hisob-kitoblar bilan asoslab beriladi. Har bir xarajatlar smetasiga maktabgacha tarbiya muassasalarining to'garaklar tarmoqlarining ish rejalari ilova qilinishi kerak. Bundan tashqari yo'nalishiga qarab to'garaklarning soni, har bir to'garakning yo'nalishlari bo'yicha bir xafta mobaynidagi ish soatlari hajmi, qatnashadigan bolalar soni ko'rsatilib o'tilishi kerak. Musiqa yo'nalishidagi to'garaklar uchun esa alohida grafada musiqa o'rgatuvchilarning xaftalik soatlari ko'rsatilib o'tiladi.

Maktabgacha muassasalarining barchasini saqlash uchun ajratilgan mablag'lar maxsus hujjat asosida, ya'ni smeta bo'yicha ajratib ko'rsatiladi. Shuning uchun ushbu muassasalarni moliyalashtirish tartibi smetali

moliyalashtirish deb ataladi. “Smeta asosida moliyalashtirish moliyalashtirishning eng qulay usuli bo‘lib, bunda birinchidan, Budget mablag‘larining xarajatining nazorat qilinishi oson bo‘lsa, ikkinchidan, kerakli mablag‘larni oldindan rejalashtirish nazarda tutiladi”.

Maktabgacha muassasalar xarajatlari smetali tartibda rejalashtirish tamoyillari asosida aniqlanadi. Bu muassasalarni saqlash uchun tuzilgan smetalar asosiy xarajatlar rejasi hujjati bo‘lib hisoblanadi. Bu hujjat barcha muassasalarga Budgetdan ajratiladigan mablag‘lar hajmini, maqsadli yo‘nalishini va choraklar bo‘yicha taqsimotni aniqlab beradi.

Maktabgacha tarbiya muassasalari Budget muassasalari tarkibiga kiradi. Ma'lumki, ular o‘z daromadlariga ega emas, hamma xarajatlarini qoplash uchun mablag‘ni mahalliy budgetlardan olishadi va o‘z navbatida budget mablag‘lari maktabgacha tarbiya, maktab ta'limi muassasalarni moliyalashtirishning asosiy manbai bo‘lib hisoblanadi.

Hozirgi kunda Respublikamizda bog‘cha, yasli va bog‘cha - yasli lar mavjud. Bundan tashqari sanatoriya tipidagi bog‘chalar mavjud bo‘lib, bu o‘z navbatida kasallangan bolalar uchun mo‘ljallangan. Bu muassasalarning smetasi O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tasdiqlagan shakl asosida tuziladi. Bu smetada bola soni, guruhlar soni, bola - kuni va boshqa ko‘rsatkichlar ko‘rsatiladi. Smetada bolalar soni va guruhlar soni yil boshida va reja bo‘yicha yil oxiridagi soni hamda o‘rtacha bolalar va guruhlar soni ko‘rsatiladi.(2.2.1-jadval)

Bog‘chalarda 9-10,5, 12, 24 soatlik guruhlar mavjud bo‘lib, bog‘chalarning o‘zi ham 5-6 kunlik bog‘chalarga bo‘lingan.1-3 yoshgacha bo‘lgan bolalar yasli guruhida bo‘lib, 3 yoshdan yuqori bo‘lgan bolalar bog‘cha guruhlarida joylashtiriladi. Yasli guruhida o‘rtacha to‘ldirilish 15 ta bola bo‘lishi kerak, bog‘cha guruhida esa 20 ta bola bo‘lishi kerak. Bundan tashqari maxsus guruhlarda 10-12 ta bola bo‘lishi mumkin. Bog‘chalarda shtatlar soni asosan guruhlar sonidan kelib chiqib qo‘yiladi. Bu shtat birliklarining belgilanishi 2.2.1- jadvalda keltirilgan

2.2.1 –jadval

Maktabgacha tarbiya muassasalari namunaviy shtatlar ro'yxati¹⁷

N	Lavozimi	Guruhlar sonidan kelib chiqib shtatlar soni										
		2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
1.	Mudira	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1
2.	Tarbiyachi metodist	-	-	-	-	0,5	0,5	1	1	1	1	1
3.	Katta hamshira	0,5	1	1	1	1	1	1,5	1,5	1,5	1,5	1,5
4.	Psixolog	-	-	-	0,5	0,5	0,5	0,5	1	1	1	1
5.	Xo'jalik ishlari bo'yicha mudiri	0,5	0,5	1	1	1	1	1	1	1	1	1
6.	Xo'jalik ishlari bo'yicha mudiri yordamchisi	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	1
7.	Bosh hisobchi	-	-	-	-	-	-	1	1	1	1	1
8.	Hisobchi	0,5	0,5	1	1	1	1	-	-	-	-	-
9.	Ish yurituvchi	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	0,5
10.	Bosh oshpaz	-	-	-	-	-	-	-	-	1	1	1
11.	Oshpaz	1,5	1,5	2	2	2	3	3	3	2	2	3
12.	Yordamchi ishchi	0,5	0,5	0,5	0,5	1	1	1	1	2	2	2
13.	Binoni ta'mirlash bo'yicha ishchi	-	-	-	-	-	-	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5
14.	Ombor mudiri	-	-	-	-	-	-	-	-	1	1	1
15.	Kastelyansha	-	0,5	0,5	0,5	0,5	1	1	1	1	1	1
16.	Kir yuvuvchi	0,75	1	1,5	1,5	2	2	2,5	2,5	3	3	4
17.	Farrosh	-	-	-	-	-	-	-	-	1	1	1

Maktabgacha tarbiya muassasalarida shtatlar soni asosan mavjud guruhlar sonidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Namunaviy shtatlarda ko'rsatilgan shtatlardan tashqari yana qo'shimcha shtatlar belgilangan ish haqi fondidan chiqmagan holda joriy qilinishi mumkin. Hozirgi kunda bog'chalarda ota-onalar to'lovi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 28 -

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vaziri o'rinbosari tomonidan 1997 yil 15 oktabrda tasdiqlangan «Maktabgacha va maktabdan tashqari muassasalar» namunaviy shtatlari.

dekabrdagi 610 - sonli qaroriga asosan hisoblanadi. Ota-onalar to'lovini hisoblash uchun asosiy ko'rsatkichlar bo'lib bolalarning bog'chalarda bo'lishlarining davomiyligi va muassasaning haftadagi ish kunlari hisoblanadi. Ota-onalar to'lovi eng kam ish haqidan kelib chiqqan holda belgilangan foiz bo'yicha belgilanadi.

Bundan tashqari ota-onalarning mehnat ta'tili payti bolalarini bog'chaga bermasliklari mumkin, bunda bog'chadagi bolalar safidan o'chirilmaydi. Ota-onalar to'lovi har oyning 10 kunigacha to'lanishi shart. Agar 2 hafta davomida ota-onalar o'z to'lovlarini to'lamasalar ushbu bolalar bog'chadagi oziq-ovqat mahsulotlarining chakana narxlari o'zgarishi munosabati bilan bolalar maktabgacha tarbiya muassasalarida, bolalar uylarida, umumta'lim internat-maktablarida va boshqa muassasalarida bolalarni ovqatlantirishning tasdiqlangan oziq-ovqat mahsulotlarining 1 sutka miqdori asosida tashkil etish kerak.

Xarajatlarning samaradorligi, joylardagi ehtiyojlarning yanada to'liq e'tiborga olinishi nuqtai-nazaridan suv xo'jaligi xarajatlarini markazlashgan holda moliyalashtirish amaliyotini maqsadga muvofiq deb bo'lmaydi. Biroq, shuni ham alohida e'tiborga olish lozimki, suv xo'jaligi xarajatlarining kapital xususiyatga ega bo'lgan turlarini mahalliy budjetlar ixtiyoriga o'tkazish yoki alohida hudud zimmasiga yuklashning imkoni yo'qdir. 2014 yilda "Ta'lim va sog'liqni saqlash muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash" jamg'armasi xalq ta'limini moliyaviy ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Quyida keltirilgan 2.2.2-jadval ma'lumotlariga ko'ra Toshkent shahar Yunusobod tumani mahalliy budjetining ta'lim sohasiga qilingan xarajatlari ijrosining 2013-2014-yillar hisobotlariga ko'ra, tumanda ta'limga 2013-yilda 51726089 ming. so'm, 2014-yilda esa 64663718 ming.so'm miqdorida o'zgarishi o'tgan yilga nisbatan 125 %ni tashkil etgan.


2.2.2 -jadval

**Toshkent shahar Yunusobod tumani mahalliy budjetining ta'lim sohasiga
qilingan xarajatlari ijrosi¹⁸ 2012-2013 yillar**

			<i>ming so'mda</i>
Ko'rsatkichlar	2013-yil	2014-yil	O'zgarishi o'tgan yilga nisbatan (%da)
TA'LIM	51 726 089	64 663 718	125
Maktabgacha ta'lim	19 877 561	26 621 374	133
Maktabgacha bolalar muassasalari	18 435 139	19 536 479	105
Maktabgacha maktab — bolalar tashkilotlari	1 442 422	7 084 895	491
Umumiy o'rta ta'lim	27 067 625,0	32 613 263	120
Boshlang'ich va o'rta maktablar	26 136 034,0	31 456 897	120
Maxsus maktablar	931 591,0	1 156 366	124
Bosqichlarga bo'linmagan ta'lim	1 806 119,0	1 663 575	0.92
Mehribonlik uylari	1 806 119,0	1 663 575	0.92
Ta'lim tizimida yordamchi xizmatlar	2 974 784,0	3 765 506	126
Bolalar bilan maktabdan tashqari ishlar bo'yicha tadbirlar va tashkilotlar	1 524 180,0	2 263 302	148
Xalq ta'limi bo'yicha uslubiy ishlar, texnik targ'ibotlar va boshqa tadbirlar	298 857,0	399 847	130
Musiqqa va san'at bolalar maktablari	1 151 747,0	1 102 357	0.95

Shundan maktabgacha ta'limga 2013-yilda 19877561 ming.so'm, 2014-yilda 26621374 ming.so'm, o'zgarishi o'tgan yilga nisbatan 133 %ni umumiy o'rta ta'limga 2013-yilda 27067625.0 ming.so'm, 2014-yilda 32613263.0 ming.so'm, o'zgarishi o'tgan yilga nisbatan 120%ni, bosqichlarga bo'linmagan ta'limga 2013-yilda 1806119,0 ming.so'm, 2014-yilda 1663575,0 ming.so'm, o'zgarishi o'tgan yilga nisbatan 0.92%ni, ta'lim tizimida yordamchi xizmatlar 2013-yilda 2974784,0 ming.so'm, 2014-yilda 3765506,0 ming.so'm, o'zgarishi o'tgan yilga nisbatan 126%ni tashkil etgan. Bundan xulosa shuki, jamiyatimizda insonparvarlik, odamiylik, mehribonlik, aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash me'yorlari yetarli darajada ekanligi aniqlanadi.

¹⁸ Toshkent shahar Yunusobod tumani Moliya bo'limi hisobotlari asosida tayyorlandi.



2.2.1-rasm. Toshkent shahar Yunusobod tumani mahalliy budjetining ta'lim sohasiga qilingan xarajatlari ijrosi¹⁹

Keltirilgan rasm ma'lumotlariga ko'ra, Toshkent shahar Yunusobod tumani mahalliy budjetining ta'lim sohasiga qilingan xarajatlari ijrosining 2013-2014-yillar hisobotlariga ko'ra, tumanda ta'limga o'tgan yilga nisbatan o'zgarishning farqi 24 %ni tashkil etgan. Shundan maktabgacha ta'limga o'tgan yilga nisbatan o'zgarishning farqi 21%ni, maktabgacha maktab — bolalar tashkilotlari o'tgan yilga nisbatan o'zgarishning farqi -26%ni, umumiy o'rta ta'limga o'tgan yilga nisbatan o'zgarishning farqi 25%ni, bosqichlarga bo'linmagan ta'limga o'tgan yilga nisbatan o'zgarishning farqi 59%ni, ta'lim tizimida yordamchi xizmatlar o'tgan yilga nisbatan o'zgarishning farqi 19%ni tashkil etgan. Ko'satkichlar orasida eng kattasini bosqichlarga bo'linmagan ta'limga o'tgan yilga nisbatan o'zgarishning farqi 59%ni tashkil etib, jumladan mehribonlik uylariga o'tgan yilga nisbatan o'zgarishning farqi 59%li ijobiy korsatkichga erishildi.

¹⁹ Toshkent shahar Yunusobod tumani Moliya bo'limi hisobotlari asosida tayyorlandi.

2.3 Umumta'lim muassasalari xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish.

Umumta'lim maktablari xarajatlari davlat Budjetining ta'lim xarajatlari tarkibida asosiy o'rinni egallaydi. Mahalliy Budjetlarning o'rtacha hisobida umumta'lim maktablariga yo'nalitiriladigan xarajatlar salmog'i 60-70 foizini tashkil etadi.

Umumta'lim maktablari xarajatlari joriy va kapital xarajatlarga ajratiladi. Joriy xarajatlarga umumta'lim maktablarini saqlash xarajatlari kiritilib, ular 3 ta guruh bo'yicha rejalashtiriladi. Umumta'lim maktablari xarajatlarini rejalashtirishda asosiy ko'rsatkichlardan, o'quvchilar soni va sinflar sonidan kelib chiqib hisoblanadi.

Umumta'lim muassasalari xarajatlarini rejalashtirishda o'quvchilar kontingenti, sinflar soni, pedagogik stavkalar va boshqa ko'rsatkichlar aniqlanadi. Asosiy ko'rsatkichlar bir kalendar yilga o'rtacha hisobda hisoblanadi, o'quv yili esa kalendar - moliya yiliga to'g'ri kelmaydi. O'rtacha yillik ko'rsatkichlar o'quvchilarning kontingentini va uning o'quv yili boshidan o'zgarishini hisoblashga imkon beradi. O'rtacha yillik ko'rsatkichlarni hisoblash uchun o'quvchilarning moliya yili boshidagi va oxiridagi soni olinadi.

Sinflar soni 1-4, 5-9 sinflar guruhlari bo'yicha va o'quvchilarning umumiy soniga hamda sinflarning to'liqligi, ya'ni bitta sinfda o'qiydigan o'quvchilar soniga bog'liq belgilanadi.

Maktablar, sinflar va o'quvchilar soni 1 yanvar va 1 sentyabr holatiga aniqlanadi. O'quvchilarning va sinflarning 1 yanvar holatidagi soni joriy yilning oxirigacha ularning o'zgarishlarini hisobga olgan holda oxirgi hisobot sanasi holati bo'yicha qabul qilinadi. Shuning uchun tugatilgan va qo'shimcha kontingentlarni hisobga olish uchun o'rtacha yillik ko'rsatkichlarni hisoblash zarurati tug'iladi.

O'quvchilarning va sinflarning o'rtacha yillik soni quyidagi formula asosida

aniqlanadi:²⁰

$$K_{o'r} = \frac{8 \times K_b + 4 \times K_o}{12};$$

bunda,

$K_{o'r}$ – sinflarning yoki o'quvchilarning o'rtacha yillik kontingenti;

K_b va K_o - yil boshidagi va yil oxiridagi sinflar yoki o'quvchilar soni;

12 – yildagi oylar soni.

Masalan, yil boshida 800 ta o'quvchi mavjud edi va 1 sentabrga 860 ta rejalashtirilmoqda. O'quvchilarning o'rtacha yillik kontingenti formula bo'yicha 820 tani tashkil etadi.

$$K_{o'r} = \frac{8 \times 800 + 4 \times 860}{12} = \frac{6400 + 3440}{12} = 820$$

Sinflarning yoki o'quvchilarning o'rtacha yillik kontingentidan kelib chiqib umumta'lim maktabini saqlash xarajatlari aniqlanadi. Umumta'lim maktablarini saqlash xarajatlari tarkibida ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar xarajatlari taxminan 65-70 %ini tashkil etadi. Ish haqi fondini aniqlashda xodimlarning shtat birliklari umumta'lim muassasasining katta-kichikligiga qarab, ya'ni o'rtacha sinflar soniga qarab belgilanadi. Ish haqi fondi o'qituvchilarning ish haqilari, boshqaruv xodimlari, ma'muriy-xo'jalik, o'quv-tarbiyaviy va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarining ish haqilari, o'qituvchilar ish haqilariga ustamalardan iborat. Umumta'lim muassasalarining xodimlari shtatlari soni O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan 1997 yil 22 oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 1 iyuldagi 358-sonli «Davlat Budjetidan moliyalashtiriladigan muassasa va tashkilotlar faoliyatini tartibga solish to'g'risida»gi Qaroriga asosan tasdiqlangan "Barcha tipdagi umumta'lim muassasalari namunaviy shtatlari" asosida belgilanadi. Har bir umumta'lim muassasasi boshqaruv xodimlari, ma'muriy-xo'jalik, o'quv-tarbiyaviy va xizmat

²⁰ B.K Tuxliyev, X.A.Qurbonov, M.J.Bauyetdinov, M.B Bijanova "Davlat byudjeti" o'quv qo'llanma O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti T: 2007y 104 bet

ko'rsatuvchi xodimlarining shtat birliklari komplekt sinflar soniga bog'liq belgilanadi. Direktor lavozimi boshlang'ich maktablarda 8 va undan ortiq komplekt-sinflar va 240 tadan kam bo'lmagan o'quvchilar mavjud bo'lganda belgilanadi. O'qituvchilarning shtat birliklari maktablardagi sinflar va ularda o'qitiladigan yuklamalar hajmi va har bir o'qituvchining yuklamasi hajmidan kelib chiqadi. Xalq ta'limi xodimlari mehnatiga haq to'lash xarajatlarini rejalashtirish «Xalq ta'limi xodimlari mehnatiga haq to'lash to'g'risida»gi Nizom asosida amalga oshiriladi. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limi xodimlari mehnatiga haq to'lash tizimini takomillashtirish va uni moddiy rag'batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2005 yil 25 noyabrdagi PQ-227-son Qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan hamda Budjetdan mablag' bilan ta'minlanadigan yoki aralash moliyalashtiriladigan xalq ta'limi muassasalari pedagog xodimlari va rahbarlari mehnatiga haq to'lash tartibi va shartlarini belgilaydi.

Umumta'lim muassasalari xodimlarining lavozim maoshlari umumta'lim muassasalarining pedagog xodimlari va rahbar xodimlarining har bir lavozimi va malaka toifasi uchun belgilangan bazaviy tarif stavkalari asosida shakllantiriladi. Bazaviy tarif stavkasi Yagona tarif setkasi bo'yicha tarif stavkasini hamda tarif stavkasiga belgilangan doimiy ustamalarni, pedagog va rahbar xodimlarning ayrim toifalar ish haqiga qo'shilgan kompensatsiya to'lovlari, xodimlarga belgilangan ustamalar va qo'shimcha to'lovlar asosida shakllantiriladi. Umumta'lim muassasasi pedagog xodimlarining bazaviy tarif stavkalari xodimning lavozimiga hamda xodimning malaka toifasiga, umumta'lim muassasasining tipiga bog'liq ravishda tabaqalashtiriladi.

Xalq ta'limi muassasalari rahbarlarining bazaviy tarif stavkalari muassasalar guruhidan kelib chiqib belgilanadi. Umumta'lim muassasalariga umumta'lim maktablari hamda barcha tip va nomdagi maktab - internatlar kiradi. Xalq ta'limi tizimi xodimlari mehnatining ish haqi bazaviy tarif stavkasini hamda ustamalar va qo'shimcha to'lovlarni o'z ichiga oladi.

Hozirgi kunda zamonaviy ta'lim tizimi tobora yangilanib bormoqda, tez o'zgarayotgan, murakkablashib borayotgan olamda qo'yilayotgan zamonaviy talablar asosida faoliyat ko'rsatishga to'g'ri kelmoqda. Ayni paytda ta'lim tizimida rahbarlikning ish uslublari, boshqaruv madaniyati va buning natijasida sifat o'zgarishlari uchun imkoniyatlar yaratuvchi pedagogik, boshqaruv yangiliklari paydo bo'lmoqda. Bularning barchasi ta'limni va uning asosiy tarkibiy qismi bo'lgan sifatini boshqarish masalalarining yechilishi murakkablashuviga olib keladi va bu esa muammoni hal qilishning zamonaviy asoslangan usullariga ehtiyoj tug'diradi.

2.3.1 - jadval

Umumta'lim muassasalari boshqaruv xodimlari, ma'muriy-xo'jalik, o'quv-tarbiyaviy va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarining namunaviy shtatlari

N	Mansab turlari	Komplekt sinflari soniga bog'liq shtat birliklari miqdori						
		6gacha	7-10	11-13	14-16	17-22	23-29	30 va undan ortiq
1.	Direktor	1	1	1	1	1	1	1
2.	Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor muovini	-	0,5	1	1	1	1,5	1.5
3.	O'quv ishlari bo'yicha direktor muovini	-	0,5	1	1	1	1,5	1.5
4.	Xo'jalik ishlari bo'yicha direktor muovini	-	-	-	-	1	1	1
5.	Psixolog	-	0,5	0,5	0,5	1	1	1
6.	Xo'jalik mudiri	0.5	0.5	1	1	-	-	-
7.	Sekretar	-	1	1	1	1	1	1
8.	Katta yetakchi	-	0,5	1	1	1	1	1
9.	Kutubxona mudiri	-	-	-	1	1	1	1
10.	Kutubxonachi	-	0,5	0,5	-	-	-	0,5

Manba: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 29 sentyabrdagi 258-sonli qarori

1-Ilova

Albatta, bu o'zgarishlar maktab rahbarlaridan juda keng ko'lamda tashkilotchilik, yaratuvchanlik boshqaruv menejmentini egallaganlikni talab etadi. Shu ma'noda maktab direktorining o'rni va mas'uliyati juda kattadir. Rahbarlikning lug'aviy ma'nosi ham, zaruriy xislatlarni avvalo o'zida shakllantirib, so'ngra o'z faoliyatida shu xislatlarni namoyon qilish orqali jamoaga o'rnak ko'rsatib,

belgilangan maqsadni amalga oshirishga jamoani jalb etishni bildiradi. Chunki jamoa birinchi galda rahbarlik salohiyatini, uning ma'naviyati, yuksak madaniyati va xalqparvarligi bilan o'ldaydi. Shu bois rahbar kadrlarni tanlash, ularni malaka oshirish kurslarida muayyan boshqaruv tayyorgarligidan o'tkazishga alohida e'tibor qaratilmoqda.


Yetakchi rahbar maktabda xodimlarga kelajak bilan bog'liq o'z tasavvurini ifoda etib, ularga yangiliklarga o'rganish va o'zgarishlar jarayonini o'tib ketishiga ularni ilhomlantirib hamda ishchilarda ishtiyoq uyg'otib, ishlashga yordam beradi. Rahbarlar o'zlari o'z maqsadlarini belgilaydilar va ularni insonlarda ishga bo'lgan munosabatini o'zgartirishda qo'llaydilar. Rahbar maqsadga kelajak haqida tasavvurlar va unga erishish yo'llarini, ikir-chikirlari va kundalik narsalarga ortiqcha e'tibor qaratmasdan ishlab chiqish orqali erishadilar. Rahbar o'ziga tobe bo'lganlar bilan munosabatni o'zaro ishonch asosida quradilar, ularni ilhomlantiradilar va qo'llab-quvvatlaydilar.

Maktabda qanday ish yuritishni belgilaydigan 2 ta kuch bor: Madaniyat va muhit. Har bir tashkilotning o'z madaniyati bo'ladi. Bunga asos solganlar, oldingi va hozirgi kundagi yetakchi rahbarlar, inqirozlar, hodisalar tarixi va o'lchami. Bular o'z navbatida qadriyatlar, an'analarga ta'sir qilib shakllantirgan.

Muhit bu-muassasa a'zolarining shaxsiy va o'zaro munosabati va qabul qilishidir. Madaniyat muassasaning ildizlariga borib taqaladigan, uzoq vaqt davomida shakllanib kelgan tizimlar, qoidalar va an'analardan iborat bo'lsa, muhit qisqa muddatda ayni paytdagi rahbar tomonidan o'rnatilgan jarayondir. Aynan mana shu jarayonni muvaffaqiyatli muhitga aylantirish uchun rahbar boshqaruv madaniyatiga ega bo'lishi lozimdir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Budjetdan tashqari maktab ta'limi Jamg'armasini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2004 yil 7 iyun 263-son Qarori bilan umumta'lim maktablari tomonidan Vazirlar Mahkamasining "Budjet tashkilotlarini moliyalashtirish tartibini takomillashtirish

to'g'risida" 1999 yil 3 sentyabrdagi 414-son qarori²¹ga muvofiq tashkil etilgan budjet tashkilotlarini rivojlantirish jamg'armalari mablag'laridan Maktab ta'limini rivojlantirish dasturini amalga oshirish uchun foydalanishga ruxsat etildi. Maktab ta'limini moliyalashtirish manbalari asosan davlat va nodavlat mablag'lar hisobidan moliyalashtiriladi . 2.3.1-rasmda bunga tarkiban yondashamiz



2.3.1-rasm. Maktab ta'limini moliyalashtirish manbalari²²

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan Iqtisodiyot vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi va Moliya vazirligi bilan birgalikda maktab mebeli va sport anjomlariga qo'yiladigan yagona talablar, shuningdek davlat ta'lim standartlari bilan o'zaro bog'langan umumta'lim maktablarini mebel va o'quv-

²¹ O'zbekiston Respublikasi QT, 1999 y., 9-son, 51-modda

²² Ma'lumotlar asosida magistrant tomonidan shakllantirildi.

laboratoriya asbob-uskunalarini bilan jihozlash normativlari ishlab chiqildi va tasdiqlandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 19 fevraldagi F-1910-son farmoyishi bilan tuzilgan Maxsus komissiya tomonidan ishlab chiqilgan 2005-2009 yillarda umumta'lim maktablarini mebel, zamonaviy o'quv-laboratoriya asbob-uskunalarini, kompyuter texnikasi va sport anjomlari bilan jihozlash dasturi ishlab chiqildi va ma'qullandi.

Umumta'lim maktablarini mebel, zamonaviy o'quv-laboratoriya asbob-uskunalarini, kompyuter texnikasi va sport anjomlari bilan jihozlash dasturini moliyalashtirish manbalari bo'lib quyidagilar xizmat qiladi:

- Budjetdan tashqari Maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasi,
- O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari,
- yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik mablag'lari,
- belgilangan tartibda ajratiladigan xorijiy kreditlar va grantlar.

Amaldagi budjet xarajatlari funksional tasnifiga ko'ra ta'lim shakllari moliyalashtirish nuqtai nazaridan ikkita katta bo'linga bo'lingan bo'lib:

- Umumiy ta'lim - maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, maktabdan tashqari ta'lim va xalq ta'limi tizimi infrastrukturasini o'z ichiga oladi.

- o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, kadrlarni malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimi - o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim, malaka oshirish va kadrlarni qayta tayyorlash hamda kadrlar tayyorlash tizimi infrastrukturasini o'z ichiga oladi.

Ba'zi xalq ta'limi muassasalarini respublika budjetidan moliyalashtirilishiga quyidagi ob'ektiv sabablar mavjud:

- Muassasalar respublikada ma'lum bir sohalar bo'yicha iqtidorli bolalarga ta'lim berish bilan shug'ullanadi. Jumladan, Oliy ta'lim muassasalari butun respublika uchun mutaxassislar tayyorlagani uchun to'liq respublika budjetidan moliyalashtiriladi.

- muassasalarning xarajatlari o'quv jarayonidan kelib chiqqan holda

juda katta va ularni moliyalashtirish uchun mahalliy budjetning imkoniyatlari etmasligi mumkin. Masalan, Xalq ta'limi vazirligi qoshidagi harbiy yo'nalishdagi maxsus maktablar.

- muassasalar respublika budjetidan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlari qoshida ochilgan. Bunga misol qilib deyarli barcha oliy ta'lim muassasalari qoshida ochilgan gimnaziya, lisey va lisey-internatlarini aytishimiz mumkin.

Shu bilan birga respublika budjetidan barcha umumta'lim tizimi uchun amalga oshiriladigan xarajatlar moliyalashtiriladi. Bu xarajatlarga:

- umuta'lim maktablarini bitiruvchilari uchun shahodatnomalar harid qilish;

- barcha umumta'lim maktablariga hisob va hisobotlarni yuritishga kerak bo'lgan turli blankalar va shakllar (masalan sinf jurnallari) sotib olishga;

- respublika miqiyosida o'tkaziladigan turli tadbirlar (respublika olimpiadalari, ko'rik-tanlovlari va boshqalar) uchun xarajatlari kiradi.

Direktor jamg'armasidan o'quvchilar bilan tarbiyaviy ishlar va sinfdan tashqari ishlar olib borilishining yuksak darajasi uchun malaka toifasiga ega bo'lgan o'qituvchi bazaviy tarif stavkasining 15 % gacha miqdorda, kasb mahorati va ta'lim jarayoniga qo'shilgan aniq hissa yuqori samaradorlik va o'qitish sifati uchun tegishli malaka toifasiga ega bo'lgan o'qituvchi bazaviy tarif stavkasining 25 % gacha miqdorda har oylik ustama belgilanadi. Direktor jamg'armasi umumta'lim muassasasi mehnatga haq to'lash fondining 15 % idan ortiq bo'lmagan miqdorida davlat Budjeti mablag'lari hisobiga shakllantiriladi.

Bundan tashqari pedagog xodimlarning bazaviy tarif stavkasiga sinf rahbarligi uchun - eng kam oylik ish haqining 100 foizi, daftar va yozma ishlarni tekshirganlik uchun - eng kam oylik ish haqining 50 foizi qo'shimcha to'lanadi. Ko'rsatib o'tilgan qo'shimcha haqlar ushbu qo'shimcha haqni moliyalashtirish uchun maxsus ajratiladigan Budjet mablag'laridan to'lanadi.

Umumta'lim muassasalarida o'qituvchilarning mehnatini normallashtirishda yillik ish rejasi o'quv, tarbiyaviy va tashkiliy tushdagi asosiy tadbirlarni bajarish uchun zarur bo'lgan ish vaqti sarfi ko'rsatilgan holda ularning ro'yxatini o'z ichiga oladi.

O'qituvchilarning yillik ish rejasi choraklar va oylar bo'yicha taqsimlangan bir yildagi soatlar miqdoridagi ish vaqtining jamlangan hisobidan kelib chiqadi

Umumta'lim muassasalari o'qituvchilar ish haqilari Xalq ta'limi vazirligi va Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining 2006 yil 5 yanvardagi №03, № 01/23 sonli birgalikdagi bo'yrug'i bilan tasdiqlangan «Umumta'lim muassasalari o'qituvchilar ish haqini hisoblash va tarifikatsiyalash tartibi bo'yicha metodik ko'rsatmasiga muvofiq o'qituvchilar tarifikatsiyasi har yili 1 sentyabr holati bo'yicha amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot Vazirligi hamda Moliya Vazirligi 2005 yildan boshlab Investitsiya dasturida Maktab ta'limini rivojlantirish dasturida nazarda tutilgan hajmlarda umumta'lim maktablarini qurish va mukammal rekonstruksiya qilish uchun jamg'arma mablag'lari hisobiga markazlashtirilgan resurslarni nazarda tutgan.

O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi 2005 yildan boshlab va keyingi yillarda Davlat Budjeti parametrlarida Maktab ta'limini rivojlantirish dasturiga muvofiq tadbirlarni bajarishga zarur mablag'larni, ushbu maqsadlar uchun jalb qilinayotgan xorijiy investitsiyalar, grantlar va homiylik mablag'larini hisobga olgan holda, alohida satrda nazarda tutilgan.

Budjetdan tashqari maktab ta'limi jamg'armasi mablag'lari quyidagi yo'nalishlar bo'yicha sarflanadi:

2.3.2- jadval

**Xalq ta'limi muassasalari rahbarlarining bazaviy tarif stavkalarini
belgilashda o'quvchilar (tarbiyalanuvchilar) kontingentiga qarab
muassasalar guruhlariga ajratilishi ²³**

Xalq ta'limi muassasalarining tipi	Kontingent soni (kishi)			
	I guruh	II guruh	III guruh	IY guruh
Umumta'lim maktablari *	1601 nafar va undan ortiq	881-1600	401-880	400 nafargacha
Maktabgacha bolalar muassasalari	9 guruh va undan ortiq	9 guruhgacha		
“Mehribonlik” uylari	201 nafar va undan ortiq	200 nafargacha		
Musiq va san'at maktablari	401 nafar va undan ortiq	400 nafargacha		
Maktabdan tashqari muassasalar	1601 nafar va undan ortiq	881-1600	880 nafargacha	
Bolalar va o'smirlar sport maktablari	Muassasalarni tegishli guruhlariga kiritish O'zbekiston Madaniyat va sport ishlari vazirligi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi			

- O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligidagi Jamg'armaning maxsus hisob raqamlaridan Maktab ta'limini rivojlantirish dasturini

- amalga oshirish bo'yicha har yili tasdiqlanadigan xarajatlar bashoratidan kelib chiqib quyi Budjetlarga maqsadli subvensiyalarga;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahridagi Jamg'armaning maxsus hisob raqamlaridan: namunaviy loyihalardan foydalanilgan holda loyiha-smeta hujjatlari mavjud bo'lgan taqdirda faqat tasdiqlangan manzilli ro'yxatlarga muvofiq buzib tashlanadigan maktablar o'rniga yangi maktablar qurishni, maktablarni mukammal rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlashni moliyalashtirishga; maktablarni zamonaviy o'quv-laboratoriya asbob-uskunalarini va kompyuter texnikasi bilan jihozlashga; partalar va maktab mebellari sotib olishga;

²³ «Xalq ta'limi xodimlari mehnatiga haq to'lash to'g'risida» gi Nizom. “Xalq ta'limi xodimlari mehnatiga haq to'lash tizimini takomillashtirish va uni moddiy rag'batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2005 yil 25 noyabrda PQ-227-son qaroriga ilova

maktablarni sport anjomlari bilan jihozlashga; quyi Budjetlarga maqsadli subvensiyalarga;

- tumanlar va shaharlardagi jamg'armaning maxsus hisob raqamlaridan umumta'lim maktablarini joriy ta'mirlashga sarflanadi.

Budjetdan tashqari maktab ta'limi jamg'armasi mablag'laridan tasdiqlangan va ro'yxatdan o'tkazilgan xarajatlar smetasi asosida tanlov savdolari (tenderlar) asosida va maktablar qurish, ularni mukammal rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlashni tashkil etish tartibiga muvofiq buzib tashlanadigan maktablar o'rniga yangi maktablar qurish, ularni mukammal rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlashni moliyalashtirish uchun foydalaniladi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayoni monitoringi xolisligini ta'minlash" yo'nalishlari:

- Me'yoriy hujjatlar ijrosi monitoringi.
- O'quv jarayoni monitoringi.
- Tarbiyaviy jarayon monitoringi.
- Metodik ishlar monitoringi.
- Innovatsiya jarayoni monitoringi.
- Zarur sharoitlarning ta'minlanganligi monitoringi.

Ta'lim muassasadagi o'quv-tarbiyaviy ishlarning saviyasi va pedagog kadrlarning kasbiy salohiyati ko'p jihatdan mazkur muassasada yo'lga qo'yilgan (yoki yo'lga qo'yilmagan) metodik xizmatning smaradorligiga bog'liq. Ta'lim muassasasida amalga oshiriladigan metodik ishlar pedagogik faoliyatni innovatsion tarzda shakllantirish va ta'lim muassasasida innovatsion muhitni yaratishning zaruriy negizidir.

Umumiy holda maktabdagi metodik ishlarning vazifalarini quyidagi tarzda ifodalash mumkin:

- maktab pedagog jamoasining faoliyatida ilg'or tajribalarni tizimli ravishda o'rganish, umumlashtirish va ommalashtirish, pedagogika fanining yutuqlarini ish

jarayoniga joriy etishda namoyon bo'ladigan innovatsion yo'nalishni shakllantirish;

- o'qituvchilarning nazariy (predmet bo'yicha) va psixologik-pedagogik tayyorgarligi saviyasini oshirish;

- yangi ta'lim dasturlarini, o'quv rejalari variantlarini, davlat ta'lim standartlaridagi o'zgarishlarni o'rganish ishlarini tashkil etish;

- yangi pedagogik texnologiyalar, ta'lim va tarbiyaning yangi shakl va metodlari bilan boyitish;

- yangi me'yoriy hujjatlarni, yo'riqnoma va uslubiy materiallarni o'rganish ishlarini tashkil etish;

- individual va differensillashgan diagnostika asosida o'qituvchilarga ilmiy-metodik yordam ko'rsatish (yosh o'qituvchilarga; fan o'qituvchilariga; sinf rahbarlariga va tarbiyasilarga; pedagogik faoliyatida muammolarga duch kelayotgan o'qituvchilarga);

- mustaqil pedagogik ta'lim olishni tashkil etishda o'qituvchilarga maslahatlar uyushtirish;

- kasbiy-pedagogik madaniyatning umumiy saviyasini ko'tarish.

Ta'lim to'g'risidagi hujjatlarga asosan, akkreditatsiya qilingan ta'lim muassasalarining bitiruvchilariga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ma'lumot to'g'risidagi hujjat (shahodatnoma, diplom, sertifikat, guvohnoma) beriladi. Davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ma'lumot to'g'risidagi hujjat oilada ta'lim olgan yoki mustaqil ravishda bilim olgan va akkreditatsiya qilingan ta'lim muassasalarining tegishli ta'lim dasturlari bo'yicha ekstern tartibida imtihonlar topshirgan shaxslarga ham beriladi, davlat ta'lim muassasalarida o'qitilishi shart bo'lgan va ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilab qo'yiladigan mutaxassisliklar bundan mustasno.

Oliy ma'lumot to'g'risidagi diplomga o'zlashtirilgan fanlar ro'yxati, ularning hajmlari va fanlarga qo'yilgan baholar yozilgan varaqa ilova qilinadi.

Dissertatsiya himoya qilgan shaxslarga belgilangan tartibda fan nomzodi yoki fan doktori ilmiy darajasi beriladi va davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplom topshiriladi.

Davlat ta'lim standartlariga mos kelgan taqdirda O'zbekiston Respublikasi bilan xorijiy davlatlarning hukumatlari o'rtasidagi ikki tomonlama bitimlar asosida har ikki tomonning ma'lumot to'g'risidagi hujjatlari belgilangan tartibda o'zaro tan olinishi mumkin.

Tegishli bosqichdagi ta'limni tugallamagan shaxslarga belgilangan namunadagi ma'lumotnoma beriladi.

Davlat tasdiqlagan namunadagi ma'lumot to'g'risidagi hujjat navbatdagi bosqich ta'lim muassasalarida ta'lim olishni davom ettirish yoki tegishli ixtisoslik bo'yicha ishlash huquqini beradi.

II bob bo'yicha xulosalar

II bob bo'yicha xulosa qiladigan bo'lsak, ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish va mustahkamlash, maktablarni davlat ta'lim standartlari talablariga javob beradigan mebel, o'quv va laboratoriya asbob-uskunolari, sport anjomlari va kompyuter texnikasi bilan jihozlashni yaxshilash ishlari 2005-2014 yillar davomida o'zining huquqiy asosiga ega bo'ldi.

Xalq ta'limi muassasalarida xarajatlarning samaradorligi, joylardagi ehtiyojlarning yanada to'liq e'tiborga olinishi nuqtai-nazaridan suv xo'jaligi xarajatlarini markazlashgan holda moliyalashtirish amaliyotini maqsadga muvofiq deb bo'lmaydi. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari xarajatlarining tarkibini iqtisodiy mohiyatini ko'rib chiqish, xar bir xarajat turi ulushini tahlil qilish nihoyatda muhimdir. Chunki aynan shu tahlil orqali biz umumiy o'rta ta'lim muassasalarining asosiy xarajat turlarini belgilashimiz va ularni optimallashtirish bo'yicha takliflar kiritishimiz mumkin.

III BOB. XALQ TA'LIMINI SAMARALI MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.

3.1 Xalq ta'limi muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari.

Kuzatishlar ko'rsatmoqdaki, iqtisodiy rivojlangan davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishida ta'lim tizimi muhim rol o'ynaydi. Shu sababli respublikamizda ham ta'lim sohasini rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda. Bu jarayon "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi, shuningdek, uning mantiqiy davomi bo'lgan "Maktab ta'limini rivojlantirishning 2004 – 2009 yillarga mo'ljallangan davlat umummilliy dasturi" xamda "Ta'lim muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash" jamg'armasi hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari "Ta'lim va sog'liqni saqlash muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash" jamg'armasiga majburiy ajratmalar stavkalari 0,5 foiz miqdorida asosida olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "2014-yilda ta'lim-tarbiya sohasida islohotlarni yanada chuqurlashtirish, ta'lim standartlari va dasturlarini takomillashtirish, maktablar, litsey va kollejlar, oliy o'quv yurtlarining moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash masalalariga katta e'tibor berildi.

2014-yilda ta'lim-tarbiya sohasida 380 ta umumta'lim maktabi hamda 161 ta kasb-hunar kolleji va akademik litseyini rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash uchun 410 milliard so'mdan ziyod mablag' yo'naltirildi"²⁴.

Shuni ta'kidlash lozimki, ta'lim tizimidagi islohotlar uni moliyaviy ta'minlash mexanizmini ham takomillashtirish bilan uyg'unlashgan holda amalga oshirilsagina kutilayotgan natijalarni beradi. Masalaga shu nuqtai-nazardan

²⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi 2015 yil 17 yanvar.

qaraganda, so'nggi yillar mobaynida O'zbekistonda ta'lim sohasiga davlat xarajatlari ulushi nafaqat MDH mamlakatlaridagidagina emas, balki ko'pchilik rivojlangan davlatlarning ko'rsatkichlaridan ham ancha yuqori va barqaror. Biroq, ta'limga yo'naltirilayotgan mablag'lar Davlat budjeti xarajatlarining deyarli uchdan bir qismini tashkil etayotganligiga qaramasdan, sohaning moddiy resurslarga bo'lgan ehtiyojini qondirish, ayniqsa, o'quv materiallari, darsliklar, joriy va kapital ta'mirlash chiqimlarini qoplash uchun etmayapti. Iqtisodiyotni erkinlashtirish va unda davlat ulushini kamaytirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilayotgan bir paytda budget mablag'larining cheklanganligi moliya sohasi oldiga ta'limga ajratilayotgan davlat mablag'lari sarfini maqbullashtirish va ulardan foydalanishning samarali yo'llarini qidirib topish kabi vazifalarni qo'yimoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 sentyabrdagi "Budget tashkilotlarini moliyalashtirish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 414-sonli Qaroriga ko'ra, pul mablag'lari moliyalashtirish me'yorlari asosida ajratilishi zarur.

Budjetdan mablag'lar bir o'quvchi hisobiga ajratilganda ijtimoiy adolat tamoyillariga rioya qilinadi: ta'lim muassasasida o'qiydigan har bir o'quvchi uchun mamlakat miqyosida bir xil mablag' belgilanadi. Bu usulning kamchiligi shundaki, unda o'quv muassasasining moddiy-texnik holati, xarajat turlari bo'yicha hududiy farqlanish hisobga olinmaydi. Shu tufayli deyarli barcha mamlakatlarda o'ziga xos bo'lgan ushbu farqlarni hisobga oladigan hamda ko'pchilik uchun tushunarli bo'lgan moliyalashtirish formulalari hamda to'g'rilash koeffisientlari ishlatiladi.

Sohadan uzoq bo'lganlarning aksariyati bir o'quvchi hisobiga ajratiladigan mablag'ni bir o'quvchini sifatli o'qitish uchun davlat tomonidan ajratilishi shart bo'lgan pul miqdori sifatida tushunadilar. E'tirof etish kerakki, moliyalashtirish formulalari umumta'lim maktablarining haqiqiy ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ular faoliyatiga ajratilishi zarur bo'lgan mablag'lar miqdorini aniqlash vazifasini

bajara olmaydi. Bu formulalar budjetda mavjud va yil davomida ajratilishi mumkin bo'lgan mablag'larni umumta'lim maktablari bo'yicha bir xilda va samarali taqsimlash bilangina chegaralanadi.

Shu tufayli hozirgi davrda bir o'quvchiga xarajatlar me'yorini belgilash yo'li bilan moliyalashtirish usuli, asosan budjetlararo mablag'lar taqsimotida ishlatilib, ta'lim muassasalarini moliyalashtirishda keng qo'llanilmayapti.

Ta'kidlash lozimki, moliyalashtirish mablag'larini bir o'quvchi hisobiga belgilash rivojlangan davlatlarning barchasida va maorif tizimini isloh qilayotgan mamlakatlarda qo'llaniladi. Bu usul xarajatlarni amalga oshirish davomida moslashuvchan bo'lishni va ta'lim sifatini oshirish yo'li bilan o'quvchilar soni ko'paytirilishini rag'batlantiradi. Chunki o'quvchilar sonining ortishigina ushbu muassasa uchun ajratiladigan mablag'lar miqdorini orttirishga asos bo'ladi.

Yuqorida aytib o'tilgan moliyalashtirish formulalari va to'g'rilash koeffisientlarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish har bir o'quvchiga belgilangan xarajatlar me'yori orqali budjetdan moliyalashtirish usulini tatbiq etishda muammoli masalalardan bo'lib qolmoqda. YuNESKO tashkilotining tadqiqotchilari Kennet Ross va Rozalinda Levanchik umumta'lim maktablarini moliyalashtirish formulasi 4 ta tarkibiy qismdan iborat bo'lishi lozimligini ko'rsatishgan:

- O'quvchilarning o'qitishga umumlashtirilgan xarajatlar miqdori.
- Ba'zi fanlarni chuqurlashtirib o'tish xarajatlari.
- Ta'limdagi qo'shimcha ehtiyojlarni qoplash xarajatlari.
- Maktab ehtiyoji uchun xarajatlar.

Mamlakatimizda ta'lim fuqarolarning ko'p millatliligidan kelib chiqib tashkil etilgan va 7 tilda olib borilgan edi. Demak, maktablarni moliyalashtirish formulasini ishlab chiqishda ta'lim jarayoni qaysi tilda tashkil qilingani ham e'tiborga olinishi lozim. Yodda tutish joizki, maktablarni moliyalashtirish formulasi, uning asosiy tarkibiy qismlari va ko'rsatkichlari o'zaro bog'liq.

3.1.1- jadval

Maktablarni moliyalashtirish formulasi tarkibiy qismlari va asosiy ko'rsatkichlarining o'zaro bog'liqligi²⁵

Tarkibiy qismlar	Ko'rsatkichlar-hisobot (reja) ma'lumotlari (moliya yili davomida bo'ladigan o'zgarishlarni hisobga olgan holda)
O'quvchilarning o'qitishga sarflanadigan umumlashtirilgan xarajatlar miqdori	O'quvchilarning umumiy soni
Ayrim fanlarni chuqurlashtirib o'tish	Ayrim fanlarni chuqurlashtirib o'tishga ixtisoslashtirilgan maktabdagi o'quvchilar soni
Ta'limdagi qo'shimcha ehtiyojlarni qoplash xarajatlari	Maktabdagi jismoniy va aqlan zaif bolalar soni
Maktab ehtiyoji uchun xarajatlar	Mahalliy hokimiyat idoralaridan uzoq (tog'li, cho'l zonalar)da joylashgan maktablardagi o'quvchilar soni
Maktabda o'qitish olib boriladigan tillar	Ta'lim jarayoni davlat tilidan boshqa tillarda tashkil qilingan maktablar (yoki sinflar)dagi bolalar soni

Umuman, maktablarni moliyalashtirish formulasini ishlab chiqishda uning tarkibiy qismlari mamlakat ta'lim tizimi ehtiyojlari asosida aniqlanadi. O'qitish bo'yicha umumiy xarajatlar har yili qaytadan hisoblanadi. Boshqa xarajatlar budjetdan ta'lim tizimiga ajratiladigan mablag'lar miqdori hamda ta'lim tizimi oldiga qo'yilgan aniq vazifalardan kelib chiqqan holda yildan-yilga oshirilishi yoki kamaytirilishi mumkin. Masalan, agar izlanishlar jismonan va aqlan zaif bolalarni o'qitish sifati pastligini ko'rsatsa, davlat tomonidan moliyalashtirish formulasining aynan shu tarkibiy qismiga e'tiborni kuchaytirish orqali ushbu sektorga qo'shimcha mablag'lar yo'naltirish hamda kelajakda ta'lim sifatini oshirishga erishishi mumkin.

Yuqorida qayd etilgan tadqiqotchilar ta'lim muassasalarini moliyalashtirish formulasining 3 ta asosiy funksiyasini ko'rsatib o'tganlar:

²⁵ Yunesko tashkilotining 2012 yil 15 – 16 noyabr kunlari Bishkekda “Ta'lim tizimi – xamma uchun” mavzusida o'tkazilgan seminari materiallaridan.

- Tenglikni ta'minlash funksiyasi moliyaviy resurslar har bir ta'lim muassasiga bir xil tamoyillarga asoslangan formulalar asosida taqsimlanishini nazarda tutadi. Bunda budjet mablag'larini maktablarga taqsimlovchi muassasa ularni o'zi xohlagancha yoki bilganicha emas, aniq qoida va tartiblar asosida ajratadi. Moliyalashtirish formulalarini to'ldiruvchi to'g'irlash koeffisientlari esa har bir ta'lim muassasasining aniq ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qiladi.

- Boshqaruv funksiyasi tenglikni ta'minlash funksiyasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, u har bir maktabga ajratiladigan mablag'lar miqdori belgilanishida namoyon bo'ladi.

- Tartibga solish funksiyasiga iqtisodchilar tomonidan alohida e'tibor qaratilgan. Moliyalashtirish formulalarining joriy etilishi o'quvchilar soni ta'lim jarayoni etarlicha sifatli tashkil qilinmagan hamda ota-onalar uchun noqulay bo'lgan maktablarda kamayib borishi hisobiga moliyaviy mablag'lar miqdori qisqarishiga, qitish sifati yuqori bo'lgan maktablarga esa ortishi evaziga ko'proq mablag'lar ajratilishiga olib keladi. Ko'rinib turibdiki, bunda maktablar o'rtasida budjet mablag'larini olish uchun ta'lim sifatini oshirish bo'yicha raqobat kuchayadi.

Bir o'quvchiga me'yoriy harajatlarni belgilash usuli ajratilayotgan moliyaviy mablag'lar hajmini ta'lim jarayonining barcha qatnashchilari (muassasa rahbarlari, ota-onalar, shu jumladan, o'quvchilarning o'zlari) aniq bilishlari, muassasa rahbarlari ularning samarali va kerakli xarajat moddalari bo'yicha yo'naltirishlari uchun imkon yaratadi.

Budjet tashkilotlariga harajatlarni belgilashda bir o'quvchiga mablag'lar taqsimlash usuli ishlatilmas ekan, uning iqtisodiy funksiyalari (xarajatlarni maqbulllashtirish va ularni real tejashga rag'bat, ta'lim sifatini oshirish orqali muassasaga ko'proq o'quvchilarni jalb etish va shu yo'l bilan ular o'rtasida raqobat muhitini yaratish) ishlamaydi.

Xullas, yangi, zamonaviy iqtisodiy rag'abatlantirish omillarini qqlab-quvvatlaydigan va ijtimoiy adolat tamoyillariga rioya etuvchi mexanizmning tatbiq

etilishi ta'lim muassasalarida mablag'lar yuqori samara bilan ishlatilishiga, ular orasida raqobat muhiti yaratilishi va ta'lim sifati oshishiga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1999 yil 3 sentyabrdagi «Budjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida»gi 414-sonli qaroriga muvofiq, ta'lim tashkilotlarining «budjet tashkilotini rivojlantirish» jamg'armasining taqsimlanishi budjet tashkiloti xodimlarini rag'batlantirishga 25 foiz, budjet tashkilotining moddiy texnika bazasini kengaytirishga 75 foiz miqdorida amalga oshirilmoqda.

Maktablarga faqat ta'lim muassasasi sifatida emas, balki juda ko'p ijtimoiy muammolarni hal qiladigan markaz sifatida qarash maqsadga muvofiq bo'ladi. Maktablarda jinoyatchilikka, SPIDga va narkomaniyaga qarshi ko'rashish, ta'lim standartlari asosida va ta'lim xizmati sifatini oshirish maqsadida psixolog, logoped kabi shtatlarni hamda «ijtimoiy instruktorlar» kabineti tizimini joriy etish yaxshi natijalar beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 10 noyabrda "Ta'lim muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash" budjetdan tashqari jamg'armani tashkil etish to'g'risida PQ-1432-sonli qarori qabul qilindi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini va maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturini amalga oshirish natijasida respublikada xalqaro standartlarga mos keladigan uzluksiz majburiy umumiy hamda o'rta maxsus kasb-hunar ta'limining 12 yillik tizimi vujudga keltirildi. 1536 ta akademik lisey va kasb-hunar kollejlari, amalda barcha umumta'lim maktablari, ta'lim muassasalari qoshidagi 1817 ta sport zallari namunaviy loyihalar asosida barpo etildi, mukammal rekonstruksiya qilindi hamda zamonaviy o'quv-laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi, mebel va o'quv asbob-anjomlari bilan jihozlandi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2011 yil 1 yanvaridan boshlab O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Maktab ta'limi jamg'armasi tugatilib, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi

huzuridagi Ta'lim muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash bo'yicha budjetdan tashqari jamg'arma tashkil etilgan. Bugungi kunda esa O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Ta'lim va sog'liqni saqlash muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi faoliyat yuritib kelmoqda.

3.2 Xalq ta'limini moliyalashtirish samaradorligini oshirishdagi tamoyillar.

Ta'lim tizimini moliyaviy-iqtisodiy boshqarish tizimining takomillashishi kuchli davlatdan kuchli jamiyatga o'tish borasida olib borilayotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy islohotlar bilan yonma-yon jarayon bo'lib, mazkur jarayonni jadallashtirish avvalo, moliya-budjet, investitsiya, ta'lim, xususiylashtirish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash siyosatlariga bog'lik.

Ta'lim tizimini moliyalashtirish va uning iqtisodiy asoslarini kengaytirishda moliyalashtirishning yangi konsepsiyasini ishlab chiqish talab qilinadi. Unga ko'ra, moliyalashtirishdan ko'proq manfaatdor tomonlar aniqlanadi. davlat moliyalashtirishining sxemasi ishlab chiqiladi, moliyalashtirishdagi asosiy muammolar va uning kelib chiqish sabablari o'rganiladi, sxemaning nomarkazlashtirish bilan bog'liq amal qilishidagi tavakkalchiliklarga baho beriladi, moliyalashtirish mexanizmi oldiga qo'yiladigan talablar belgilanadi.

Davlat budjetidan moliyalashtirish quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- mablag'larni sarflashda tejamkorlik tartibiga rioya qilish, pul sarflarining eng kam bo'lishiga intilish;
- budjet mablag'laridan maqsadli foydalanish, ya'ni faqat aniqlangan va oldindan asoslangan maqsadlarga ularni smeta moddalari o'rtasida qayta taqsimlashlarsiz ishlatish;
- davlat ta'lim muassasalarining moliyaviy faoliyati ustidan yuqori tashkilotlar hamda moliya organlari tomonidan muntazam nazoratni olib borish.

Ma'lumki, respublikamizda davlat Budjetining g'azna ijrosi tizimi joriy etilgandan keyin barcha yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan Budjet tashkilotlarini moliyaviy ta'minlash g'aznachilik tizimi orqali amalga oshiriladigan bo'ldi.

Markaziy G'aznachilik tizimini tashkil qilishdan asosiy maqsad - O'zbekiston Respublikasi Davlat Budgetining ijrosi jarayonida mablag'larni samarali boshqarish, davlat byurtmalarini va dasturlarini moliyalashtirishda tezkorlikni oshirish, Budget daromadlari tushumini va davlat mablag'lari maqsadli sarflanishini nazorat qilishda tezkorlikni ta'minlashdir.

Budget xarajatlari amalga oshirilishini boshqarishni mujassamlashtirish maqsadida quyidagilar amalga oshirilishi kerak:

- Tegishli budget va Davlat maqsadli jamg'armalaridan xarajatlarning ruxsat orqali amalga oshirilishi hamda ularning xajmi yillik ajratmalari va xarajatlarni amalga oshirish ruxsati miqdoridan oshmasligi kerak.

- Budget tashkilotlarining budgetdan tashqari jamg'armalari xarajatlari tegishli ruxsat asosida amalga oshirilishi hamda Budgetdan tashqari daromadlar hajmi doirasida amalga oshiriladi.

- Maqsadli grantlar va davlat qarzlarini xisobiga moliyalashtiriluvchi xarajatlar uchun xarajatlar tegishli ruxsat va amaldagi me'yor hamda qo'llanmalari asosida mavjud holda mablag'lar doirasida G'aznachilik organlarining tegishli ruxsati asosida amalga oshiriladi.

Budgetdan mablag' oluvchilarning xarajatlari to'lovi moliya yili uchun ajratilgan Budget mablag'lari doirasida tasdiqlangan xarajatlar smetalari, shuningdek g'aznachilik tizimining amaldagi tartibiga muvofiq ro'yxatga olingan, Budgetdan mablag' oluvchilarning mahsulot yetkazib beruvchilar bilan tuzgan shartnomalari asosida:

Respublika Budgetidan moliyalashtiriladigan tashkilotlar bo'yicha - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi yoki uning xududiy bo'linmalari tomonidan amalda belgilangan tartibda Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti yoki mahalliy budjetlardan moliyalashtiriladigan tashkilotlar bo'yicha - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligining hududiy g'aznachilik bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda haligacha ta'limni moliyalashtirish manbasi asosan, bandlikka ko'maklashish jamgarmasi, xususiylashtirilgan korxonalardan

tushgan mablag'lar hamda davlat budjetidan iborat bo'lmoqda. Shu bilan birga moliyalashtirish tarkibida davlat budjeti ulushi 78-95 foizgachani tashkil etmoqda. Demak, bugungi kunda budjet mablag'larini boshqarish ta'limni iqtisodiy boshqarishda ustuvor ahamiyat kasb etadi.

G'aznachilik tizimini joriy etilishi davlat budjeti mablag'laridan samarali foydalanish maqsadida yurtimizda budjet tizimi sohasida amalga oshirilgan eng katta iqtisodiy isloxotlardan hisoblanadi.

Bu tizimni joriy etish budjet daromadlarning to'liq va o'z vaqtida tushishini va xarajatlar qismida budjet mablag'larining maqsadli sarflanishining nazoratini kuchaytirish va pul oqimlarni samarali boshqarish, kreditor to'lov intizomini mustahkamlash hamda natijada debitor va kreditor qarzdorlialarni keskin qisqartirish, davlat budjeti jarayonini jahon andozalariga javob beradigan yangi sifat pog'onasiga chiqarishga imkon beradi.

Respublikamizdagi barcha budjet tashkilotlari g'aznachilik bo'limlari tomonidan ochilgan shaxsiy xisobraqamlariga ega.

Budjetdan mablag' oluvchilarning budjet mablag'larining sarflanishi bo'yicha operatsiyalarning hisobini yuritish maqsadida g'aznachilik bo'linmalari tomonidan Davlat budjetining budjet tasnifi bo'limlari, boblari va paragraflari bo'yicha quyidagilarning hisobini yuritish uchun shaxsiy hisobvaraqlar ochiladi:

Budjetdan mablag' oluvchilarning o'zini saqlash va markazlashgan tadbirlarni amalga oshirish uchun xarajatlar smetasida ko'zda tutilgan tasdiqlangan (aniqlangan) rejali budjet ajratmalari; yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan quyi tashkilotlar uchun ko'zda tutilgan tasdiqlangan (aniqlangan) rejali budjet ajratmalari; kapital qurilish ob'yektlari bo'yicha xarajatlarning oylik yoyilmasida ko'zda tutilgan tasdiqlangan (aniqlangan) rejali budjet ajratmalari; zaxira jamg'armasi mablag'lari bo'yicha xarajatlar smetasida nazarda tutilgan mablag'lari; ro'yxatga olingan yuridik majburiyatlari; budjetdan mablag' oluvchilar tomonidan taqdim qilingan moliyaviy majburiyatlar summasi; xarajatlar to'lovi ruxsatnomalari; budjetdan mablag' oluvchilar tomonidan amalga oshiriladigan kassa xarajatlari.

Har bir shaxsiy hisobvaraqa tegishli unikal raqam beriladi.

Budjetdan mablagʻ oluvchilarning shaxsiy hisobvaraqlarini roʻyxatga olish jurnali gʻaznachilik boʻlinmalari tomonidan bir vaqtning oʻzida qogʻoz va elektron tarzda yuritiladi.

Budjet tashkilotlari gʻaznachilik organlari tomonidan oʻzlari uchun ochilgan shaxsiy hisobvaraqlar orqali mol yetkazib beruvchilar bilan tuzgan shartnomalari boʻyicha mablagʻlarni toʻgʻridan toʻgʻri ularni xisobraqamlariga oʻtkazish imkoniyatlariga ega boʻldilar. Bu bilan Budjet tashkilotlarni debitorlik va kreditorlik qarzdorliklar oldi olinadi hamda mablagʻlarni aylanishi tezlashadi.

Budjetdan mablagʻ oluvchilar yetkazib beruvchilar bilan shartnomalar tuzadilar, shuningdek shartnomalarga budjetdan mablagʻ oluvchilarning xarajatlar smetalarida nazarda tutilgan tegishli rejali budjet mablagʻlari doirasidagina qoʻshimcha va oʻzgartirishlar kiritadilar.

Budjetdan mablagʻ oluvchilar bilan yetkazib beruvchilar oʻrtasida tuziladigan shartnomalar tegishli moliya organlarida majburiy roʻyxatdan oʻtkazilib, ularga tegishli raqamlar berilishi va roʻyxatdan oʻtkazish sanasi koʻrsatilishi kerak.

Shartnomani hisobga olish moliya organi tomonidan budjetdan mablagʻ oluvchi va yetkazib beruvchining nomi hamda rekvizitlari, shuningdek shartnoma summasi, uning raqamlari va tuzish sanasi, moliya organi tomonidan Davlat budjetining gʻazna ijrosi qoidalari 1-son ilovaga koʻra budjetdan mablagʻ oluvchilar bilan yetkazib beruvchilar oʻrtasida tuzilgan shartnomalarni roʻyxatdan oʻtkazish kitobida roʻyxatdan oʻtkazish raqami va sanasi koʻrsatilgan holda amalga oshiriladi.

Shartnomani roʻyxatdan oʻtkazish uchun budjetdan mablagʻ oluvchi moliya organiga shartnomaning bitta asl nusxasi va bitta koʻchirma nusxasini taqdim etadi. Shartnomalarga mazkur Davlat budjetining gʻazna ijrosi qoidalari 2-son ilovaga binoan shaklda toʻlovlar jadvali ilova qilinishi kerak.

Moliya organi budjetdan mablagʻ oluvchi tomonidan shartnoma taqdim etilgan kundan boshlab uch ish kuni mobaynida budjetdan mablagʻ oluvchining

xarajatlar smetasida nazarda tutilgan tegishli rejali budjet mablag'lari mavjudligi masalasida shartnomada ko'rsatilgan summani tekshiradi.

Agar tuzilgan shartnomaga ko'ra to'lanadigan pul mablag'lari summasi budjetdan mablag' oluvchining xarajatlari smetasida nazarda tutilgan rejali budjet mablag'lari summasidan oshib ketsa, mazkur shartnoma Budjetdan mablag' oluvchiga uni moliya organi tomonidan ro'yxatdan o'tkazmasdan turib qaytariladi.

Shartnomani ro'yxatdan o'tkazish budjetdan mablag' oluvchi tomonidan shartnoma taqdim etilgan kundan boshlab uch ish kuni mobaynida shartnoma asl nusxasi va ko'chirma nusxasining birinchi varag'iga "Ro'yxatdan o'tkazildi" yozuvini qo'yish va ro'yxatdan o'tkazish raqami va sanasi ko'rsatilgan holda amalga oshiriladi, ularni moliya organining mansabdor shaxsi o'z imzosi va moliya organining muhri izi bilan tasdiqlaydi. Ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin ro'yxatdan o'tkazilgan shartnomaning ko'chirma nusxasi hisobga olish va saqlash uchun moliya organida qoladi.

Bu tizim shunday xususiyatga egaki, unda to'lovlarni amalga oshirish uch bosqichda amalga oshiriladi. Bu xar bir bosqich xamma jarayonlarda bi-birini ishlarini beixtiyor nazorat qiladi. Bu shu anglatadiki, budjet xarajatlarni o'z vaqtida to'liq moliyalashtirish va budjet mablag'larni ko'r-ko'rona suiste'mol qilishni oldini oladi.

G'aznachilikda to'lovlarni amalga oshirish Budjet mablag'lari oluvchilarning yuridik majburiyatlarini ro'yxatdan o'tkazish asosida moliyaviy majburiyatlarni bajarilishi, deb tushiniladi.

III bob bo'yicha xulosalar

Bob bo'yicha xulosa qiladigan bo'lsak, hozirgi sharoitda iqtisodiy rivojlanish muammolarini hal qilish uchun ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosiy omili – jami ishchi kuchining to'liq safarbar etilishi va faolligi ta'minlanishi zarur. Bunda millatning ma'naviy va madaniy rivojini, intellektual salohiyatini yuksaltirish omili sifatida qaralayotgan ta'limning ahamiyati beqiyos.

Maktablarni moliyalashtirish formulasini ishlab chiqishda uning tarkibiy qismlari mamlakat ta'lim tizimi ehtiyojlari asosida aniqlanadi. O'qitish bo'yicha umumiy xarajatlar har yili qaytadan hisoblanadi. Boshqa xarajatlar budjetdan ta'lim tizimiga ajratiladigan mablag'lar miqdori hamda ta'lim tizimi oldiga qo'yilgan aniq vazifalardan kelib chiqqan holda yildan-yilga oshirilishi yoki kamaytirilishi mumkin. Masalan, agar izlanishlar jismonan va aqlan zaif bolalarni o'qitish sifati pastligini ko'rsatsa, davlat tomonidan moliyalashtirish formulasining aynan shu tarkibiy qismiga e'tiborni kuchaytirish orqali ushbu sektorga qo'shimcha mablag'lar yo'naltirish hamda kelajakda ta'lim sifatini oshirishga erishishi mumkin.

XULOSA

Ushbu magistrlik dissertatsiyasini bajarish jarayonida ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning samarasi, xususan, xalq ta'limi tizimini moliyalashtirishni yanada takomillashtirish borasida o'zlashtirilgan natijalarga asoslanib quyidagi xulosalar chiqarildi:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi istiqbol yillarida ta'lim sohada amalga oshirilgan islohotlarning xuquqiy – iqtisodiy asosi bo'lganligini ta'kidlash maqsadga muvofiqdir. O'zbekistonda milliy, madaniy-tarixiy va ma'naviy-axloqiy meros, xalq an'analari, madaniyat, fan, texnika, texnologiya sohasida hozirgi paytda erishilgan yutuqlar, shuningdek, davlat, jamiyat, shaxsning istiqboldagi ehtiyojlari o'z ifodasini topib, mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini, demografik xususiyatlarini o'zida aks ettirgan yaxlit, uzliksiz va izchil ta'lim tizimi shakllantirildi.

2. O'zbekiston Respublikasidagi har bir budjet tashkiloti, shuningdek, xalq ta'limi tizimi ham Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan Budjetdan moliyalashtirish me'yoriylariga asoslangan holda, tasdiqlangan namunaviy shtatlar asosida smetalar, shtat jadvallari doirasida faoliyat yuritib kelmoqda. Bu jarayonda budjet tashkilotlari xarajatlari smetasini tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish amaliyoti qo'llanilishi o'zining samarasini berdi.

3. Xalq ta'limi tizimini moliyalashtirish takomillashtirildi. Xususan, maktabgacha ta'lim tizimini moliyalashtirish mexanizmi ham takomillashtirilib, uning uzluksizligini, shuningdek Kadrlar tayyorlash milliy dasturi vazifalari samarali amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida (2007 yil 25 oktyabrda) O'zbekiston Respublikasining "Davlat maktabgacha ta'lim muassasasi to'g'risida"gi Nizomi ishlab chiqildi. U davlat maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini tartibga soluvchi asosiy huquqiy xujjat hisoblanadi.

4. Xalq ta'limi tizimini moliyalashtirish takomillashtirilish uzluksiz va davomiy jarayondir. Shu bois, ushbu yo'nalishdagi faoliyatning xuquqiy-me'yoriy asoslarini zamon va istiqbol talablariga muvofiq yangilab boorish zarur. Xususan,

soxadagi yangilanish, moddiy-texnik bazani boyitib boorish, uslubiy ta'minotni yanada yaxshilash, pedagoglar faoliyatini rag'batlantirish o'z navbatida, shunga mos ravishda moliyalashtirishni taqozo etmoqda.

5. Xalq ta'limi tizimini moliyalashtirish takomillashtirilshda rivojlangan mamlakatlarning bu boradagi tajribalari O'zbekistonda ham ommalashtirilganligi kuzatildi.

Tadqiqot natijalariga o'tilgan xulasalarga asoslangan xolda quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- xalq ta'limi tizimi, shu jumladan sohani moliyalashtirish borasidagi muammolarni hal etishda aniq loyihalarni ishlab chiqish lozim.

- ta'limning barcha darajalarida faoliyat ko'rsatadigan mas'ul xodimlarni tayyorlash bo'yicha yangi dasturlarni yaratish zarur.

- samarali moliyalashtirishda xalq ta'limi muassasalarini zamonaviy darajada moddiy texnik bazasini mustaxkamlash, shunga mos ravishda pedagoglar sifatini oshirishga yo'naltirilgan mablag'lar maqsadli ishlatilishi yuzasidan, ta'lim muassasasi va unda faoliyat yuritayotgan pedagoglar reytingini aniqlashga qaratilgan monitoringni samarasini oshirish lozim.

- Ta'lim, xususan, xalq ta'limini darslik, o'quv adabiyotlari, o'qitishning modul tizimiga asoslangan elektron manbalari, ta'lim texnologiyalari bo'yicha uslubiy ishlanmalar bilan boyitish maqsadida tizimni moliyalashtirish smetalarini shu parametrlarini optimallashtirish zarur.

- standart talablar asosida belgilangan vazifalarni amalga oshirish yuzasidan talab etiladigan moliyalashtirish manbalari tarkibini aniq belgilash zarur.

- maktab mulki va pedagoglar salohiyatidan foydalangan xolda qo'shimcha ta'lim xizmatlari turi va ko'lamini oshirish orqali o'z-o'zini moliyalashtirish samarasini oshirish

- ta'limni moliyalashtirish tizimida loyihalar potensialidan foydalanish va ta'limni moliyalashtirishga taaluqli xalqaro va donor loyihalarini to'g'ri muvofiqlashtirish lozim deb hisoblaymiz.

Xalq ta'limi tizimi xarajatlarini samarali amalga oshirishni tashkil qilish birinchi navbatda, rejalashtirilgan ob'ektlari to'liq qamrab olinishi va hisoblanishi lozim bo'lgan ko'rsatkichlarining mutlaq va nisbiy darajalariga bog'liq.

Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda ta'limni rivojlantirish va uni moliyalashtirishda davlat yuqori ulushga ega. Biroq, mazkur davlatlarda nodavlat ta'lim tizimi ham yaxshi rivojlangan. Fikrimizcha, ushbu tajribani amalda qo'llash, ya'ni, bu kabi muassasalarni mamlakatimizda ham tashkil qilish o'rinlidir. Chunki, mazkur tadbirning qo'llanilishi ta'lim sifati va moliyaviy ahvolni yaxshilash borasida samarali vosita bo'la oladi.

O'zbekistonda maktabgacha ta'lim muassasalari, umumiy o'rta ta'lim maktablari soni va tarbiyalanuvchilar, shuningdek, o'quvchilar soni yilma-yil kamayib borish tendensiyasiga ega bo'lmoqda. Respublikamizda akademik lisey va kasb-hunar kollejlari sonida esa, aksincha keskin o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda. 90-yillar boshida umumta'lim maktablari pedagoglari keskin kamaygan bo'lsa, so'nggi yillarda ularning soni barqarorlashib, o'sish tomonga o'zgara boshladi.

Hukumat tomonidan ko'rilayotgan chora-tadbirlar tufayli, ta'lim sohasi sarf-xarajatlar ko'lami, nominal va real qiymati keyingi besh yil davomida ko'paya boshladi. Hukumat o'z zimmasiga olgan majburiyatlarini bajarayotgani ta'lim sohasiga investisiya sarflash darajasi yuqori ekanligidan dalolat bermoqda.

Shunday qilib, xalq ta'limi muassasalarini moliyalashtirishda qo'shimcha mablag'larni jalb qilish, foydalanish va albatta uning istiqbolini to'g'ri belgilash budjet moliyaviy resurslardan samarali foydalanish bugungi kunning asosiy talablaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent.: "O'zbekiston" 2012. - 32b.
2. O'zbekiston Respublikasining "Budjet kodeksi" Qonuni. 26.12.2013 y.
3. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, - T.; «O'zbekiston». 1997 yil 28 avgust.
4. O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» Qonuni. - T.: «O'zbekiston». 1997 yil 28 avgust.
5. O'zbekiston Respublikasining Moliyaviy Qonunlari. - T.: «O'zbekiston». 1999-2005 yillar.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Vazirlar

Mahkamasining Qarorlari

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 sentyabrdagi «Budjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida»gi 414-sonli Qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xalq ta'limi muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish to'g'risida» gi farmoni, 2007 yil 26 fevral.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 21 dekabrdagi 275-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Xalq ta'limi xodimlariga haq to'lash to'g'risida»gi nizom.
4. Ta'lim muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash" budjetdan tashqari jamg'armani tashkil etish to'g'risida PQ-1432-sonli qarori
5. "O'zbekiston Respublikasining 2011 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-1449 sonli Prezident Qarori. 24 dekabr 2010 yil.
6. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi". Prezident Islom Karimovning 2010

yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi.

7. "O'zbekiston Respublikasining 2012 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-1675 sonli Prezident Qarori. 30 dekabr 2011 yil.

8. O'zbekiston Respublikasining 2013 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-1887 sonli Prezident Qarori. 25 dekabr 2012 yil.

III. Prezident asarlari va ma'ruzalari

1. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz-jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir, Xalq so'zi gazetasi, 2005 yil 26 yanvar, 1-5 b.

2. Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida. –T.: O'zbekiston, 2008. T.16. – 365 b.

3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009. – 56. b.

4. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. // – T.: O'zbekiston. 2010. – 80 b.

5. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. – T.: O'zbekiston. 2011. – 48 b.

6. Karimov I.A. 2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. – T.: O'zbekiston. 2012. – 36 b.

7. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish – T.: O'zbekiston. 2013. – 64 b.

8. Karimov I.A. 2014-yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. – T.: O'zbekiston. 2014. – 64 b.

9. Karimov I.A. "Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat kilishimiz lozim." // Xalq so'zi gazetasi, 2006 yil 11 fevral.
10. Karimov I.A. «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom etgirish - davr talabi» Xalq so'zi gazetasi 2009 yil 13 fevral
11. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. —T.: O'zbekiston, 2009. - 56 b.
12. Karimov I.A. "Asosiy vazifamiz - Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir". // - T.: O'zbekiston. 2010.-80 6.
13. Karimov I.A. "2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi". - T: "O'zbekiston", 2012. - 36 b.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi, 2012 yil 20 yanvar. 1-3 betlar.
15. Karimov I.A. "Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish"/– T.: O'zbekiston. 2013y –64b.
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi, 2013 yil 19 yanvar

IV. O'zbekiston Respublikasi vazirliklarining me'yoriy-huquqiy hujjatlari

1. Davlat moliyasi tizimi. Me'yoriy-huquqiy hujjatlar to'plami. 1,2,3-jildlar.- T.: O'zbekiston, 2002 yil
2. Yagona ijtimoiy to'lovni hamda davlat ijtimoiy sug'urtasiga majburiy badallar va ajratmalarni hisoblash, to'lash va taqsimlash to'g'risida Nizom.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2004 yil 6 aprelda 1333-son bilan ro‘yxatga olingan.

3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Budjetini tuzish va ijro etish qoidalari. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2002 yil 14-martida 1111- son bilan ro‘yxatga olingan.

4. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Budjetiga, mahalliy Budjetlarga Budjet ssudalarini berish va olingan Budjet ssudalarini qaytarish tartibi to‘g‘risidagi Nizom. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2001 yil 19 - iyulda 1052-son bilan ro‘yxatga olingan.

5. Budjet tashkilotlari tomonidan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish tartibi. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2000 yil 25 yanvarda 880 - son bilan ro‘yxatga olingan.

6. Budjet tashkilotlari tomonidan muassasa va tashkilotlarga vaqtincha ishlatilmayotgan davlat mulkini ijaraga berish tartibi to‘g‘risidagi nizom. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2000 yil 7 yanvarda 869 - son bilan ro‘yxatga olingan

7. O‘zbekiston Respublikasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika Budjetlarida, shunindek viloyat, shahar va tuman mahalliy Budjetlarida turuvchi tashkilotlarning xarajat smetalarini tuzish, ko‘rib chiqish va tasdiqlash tartibi haqidagi yo‘riqnoma. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2000 yil 3 fevralda 888 - son bilan ro‘yxatga olingan.

8. Budjet tashkilotlari xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini Moliya vazirligi va moliya organlaridan ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 1999 yil 13 dekabrda 849 - son ro‘yxatga olingan.

V.Asosiy adabiyotlar.

1. Axmadjonov.A. Amerika Qo‘shma Shtatlarining federal budjet tizimi. O‘quv qo‘llanma. T: "Fan", 2004, - 430 b.

2. Vahobov A., Malikov T. Moliya. Darslik. Toshkent, “Noshir”, 2011 y. 712 b.

3. Malikov T. Haydarov N., “Moliya: umumdavlat moliyasi” o’quv qo’llanma Toshkent, “IQTISOD-MOLIYA”, 2009 y. 556 b.
4. Vahobov A., Malikov T. “Moliya: umumnazariy masalalar” o’quv qo’llanma Toshkent, “IQTISOD-MOLIYA”, 2008 y. 316 b.
5. Malikov T., Haydarov N., “Budjet: tizimi, tuzulmasi, jarayoni” o’quv qo’llanma, Toshkent “IQTISOD-MOLIYA”, 2008 y, 84 b.
6. Vahobov.A, Jumaev N., Burxonov U. Xalqaro moliya munosabatlari// Darslik. T.: Yangi asr avlodi, 2003, - 400 b.
7. Vahobov.A, Jumaev N., Burxonov U. Chet mamlakatlar moliyasi// Monografiya. T.: Yangi asr avlodi, 2003, - 333 b.
8. Vahobov A., Srojiddinova 3. O’zbekiston Respublikasi davlat budjeti. O’quv qo’llanma. -T.: Moliya. 2002, - 83 b.

VI. Qo’shimcha adabiyotlar

1. Дробозина Л.А. Финансы. Учебник. - М: ЮНИТИ, 2003. 460 стр.
2. Василев В.И. и др. Принципы предпринимательского творчества. МГТУГА. М. 2005. 360стр
3. Ворохалина Л.П. Экономические механизмы развитие малых предпринимательских структур в российской экономике: РАН Институт экономики.- М. 2006. 320 стр.
4. Деловая среда в Узбекистане глазами представителей малого и среднего бизнеса. По итогам 2009 г. Всемирный банк. Т., 2006.
5. Как ликвидировать предприятие (Практическое пособие).-М.: Финстатинформ, 2006. – С.67.
6. Крисин А.В. Безопасность предпринимательской деятельности. М: Финансы и статистика. 2006. с. 384.
7. Макконнелл К.Р., Брю С.Л. Экономикс: Принципы, проблемы и политика.— М.: ИНФРА-М, 2008.
8. Макроэкономические проблемы переходного периода в Узбекистане. «Проблемные исследования в экономике». Изд.дом «Мир экономики и права», 2007, 384 с.

9. Боди З., Мертон Р.К. Финансы Пер. с англ. : Уч. Пос. – М.: Изд. дом “Вильямс ” 2009. – 320 с.
10. Барулин С.В. Финансы. – М.: КНОРУС , 2011 г. – 640 стр.
11. Кадомцева С.В. Государственные финансы. – М.: ИНФРА – М, 2010 г.- 352 стр
12. Поляка Г.Б. Государственные и муниципальные финансы. – М.: Юнити, 2008 г. – 390 стр.
13. Лушина С.И., Слеова В.А. Государственные и муниципальные финансы. – М.: “Экономист ”, 2007 г. – 763 стр.
14. Turabov B.T. Budjetdan moliyalashtiriladigan muassasalarda budjet intizomini mustahkamlash masalalari. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya avtoreferati. – Toshkent, 2010. – B. 20.
15. Do'stmuxammad X.U. Xalq ta'limini samarali moliyalashtirishni tashkil etish yo'llari. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya avtoreferati. – Toshkent, 2012. – B. 25.
16. Do'stmuxammad X.U. Xalq ta'limini moliyalashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati. «Iqtisodiyot va ta'lim». 2009 yil, № 1.
17. Do'stmuxammad X.U. Xalq ta'limini samarali moliyalashtirish. «Jamiyat va boshqaruv». 2008 yil, № 4.
18. Do'stmuxammad X.U. Xalq ta'limi samaradorligini oshirishning moliyaviy jihatlari // O'zbekiston iqtisodiyotining barqarorligi va mutanosibligini mustahkamlash bugungi kunning ustuvor vazifasi. Ilmiy-amaliy anjuman. I-kitob. Toshkent: TashGU, 2009. – B. 352-354.
19. Do'stmuxammad X.U. Inqirozdan so'nggi davrda xalq ta'limini moliyalashtirish samaradorligini oshirish // «Zamonaviy boshqaruv va rahbar ma'naviyati: nazariya, metodologiya va amaliyot» ilmiy-amaliy konferensiyasi. Toshkent: «Akademiya» 2007.

VII. Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobotlar

1. Raximova D. Davlat tomonidan kuchli ijtimoiy imoya tadbirlari qo'llanishi//O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi, 2000, №3. -B. 40.

2. Rahimova D. Davlat tomonidan kuchli ijtimoiy himoya tadbirlari qo‘llanishi //O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi, 2000, №3.-40 b.
3. Qosimova G. A. «G‘aznachilik faoliyatining tashkil etishning dolzarb muammolari. «O‘zbekiston Respublikasi bank va moliya tizimlarida islohotlarni chuqurlashtirish muammolari» mavzusidagi xalqaro ilmiy- amaliy anjuman materiallari. Toshkent. Bank-Moliya Akademiyasi. 2005 yil. 15 iyun.
4. Qosimova G. A. «Budjet tizimini isloh qilishning asosiy yo‘nalishlari». «O‘zbekiston bank-moliya tizimi islohatlarini chuqurlashtirish muammolari va uni iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ta'sirini kuchaytirish» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Toshkent. Bank- moliya Akademiyasi. 2003 yil. 3 iyun.
5. Europäische Kommission. Soziale Sicherheit in Europa. Luxemburg, 1995. – P. 48.
6. Узбекистан в цифрах 2013. Статистический сборник. –Т.: Госкомитет РУз по статистике, 2013.
7. Торговля в Узбекистане 2013. Статистический сборник. –Т.: Госкомитет РУз по статистике, 2013.
8. Транспорт и связь в Узбекистане 2013. Статистический сборник. –Т.: Госкомитет РУз по статистике, 2013.
9. Статистический ежегодник регионов Узбекистана 2013. Статистический сборник. –Т.: Госкомитет РУз по статистике, 2013.
10. Промышленность Узбекистана 2013. Статистический сборник. – Т.: Госкомитет РУз по статистике, 2013.
11. Сельское хозяйство Узбекистана 2013. Статистический сборник. –Т.: Госкомитет РУз по статистике, 2013.
12. Социальное развитие и уровень жизни в Узбекистане 2012. Статистический сборник. –Т.: Госкомитет РУз по статистике, 2012. – 148 с.
13. Население Узбекистана 2013. Статистический сборник. –Т.: Госкомитет РУз по статистике, 2013. – 117 с.

14. Финансы Узбекистана 2013. Статистический сборник. –Т.: Государственный комитет Республики Узбекистан по статистике. 2013. С. 132.

VIII. Internet tarmog'i bo'yicha veb-saytlar:

www.minfin.ru

[www.soliq.uz.](http://www.soliq.uz)

www.mf.uz

www.google.ru

www.budget.ru

www.ya.ru

www.gov.uz

www.5ballov.uz

www.mfa.uz

www.ref.uz

www.mfer.uz

www.поиск.uz

www.cer.uz

www.tradeeconomics.ru

www.eduworld.ru

www.cbu.uz

www.businessvoc.ru

www.lex.uz

www.arxiv.uz

www.stat.uz